

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

***Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti***

***TARIX fakulteti
ARXELOGIYA kafedrası***

***JANUBIY TURKMANISTONDA DASTLABKI
DEHQONCHILIKNING VUJUDGA KELISHI***

Malakaviy bitiruv ishi

***Bajardi: Arxeologiya yo'nalishi 405-guruh talabasi
Sattorov Eldor Bobir o'g'li***

Ilmiy rahbar: dots.Jo'raqulova Dilfuza Mavlonovna

Malakaviy bitiruv ishi Arxeologiya kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2015-yil _____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. (Bayonnoma № __)

Kafedra mudiri: dots.Jo'raqulova D.M.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2015-yil _____dagi majlisida himoya qilindi va ___ foizga baholandi (Bayonnoma № __).

YaDAK raisi:

YaDAK a'zolari:

Samarqand – 2015

MUNDARIJA:

KIRISH.

I BOB. JANUBIY TURKMANISTONDA DASTLABKI

DEHQONCHILIKNING VUJUDGA KELISHI

1.1. Joytun urug‘ – jamoalarining dehqonchilik madaniyati.

II BOB. JANUBIY TURKMANISTONDAGI ENEOLIT VA BRONZA DAVRI DEHQONCHILIGI MANZILGOHLARI

2.1. Janubiy Turkmanistonda eneoli va bronza davri sug‘orma dehqonchiligi

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH.

“Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu – tabiiy hol. Odamzod borki, avlod – ajdodi kimligini, nasl – nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi. SHuning uchun ham “Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g‘oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim”¹. Bu purma’no fikrlar olimlarimizdan Vatan tarixini puxta o‘rganish va bilish, yoshlarimizni millatimiz tarixi an’analari asosida tarbiyalashga chorlaydi.

O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlarida miloddan avvalgi VI ming yilliklarda yashagan neolit davri jamoalari o‘lkada birinchi bo‘lib, ilk marta o‘troq dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik ishlab chiqarish xo‘jalik jarayoniga o‘tganliklari isbotlangan. Bu taraqqiyot o‘zgarishlari sivilizatsiyaning ilk, ko‘hna ildizlaridan guvohlik beradi. Bu hududlarda yashagan odamzod jamoalari peshma – pesh taraqqiyot tufayli metallardan foydalanishni kashf qildilar. Aslida joyli neolit jamoalarining vorislari mil. avv. IV ming yilliklarda misdan foydalanishni kashf qilishib, turmushda yana bir pog‘ona taraqqiyotga erishdilar. Ammo mis buyumlar mo‘rt bo‘lganligi odamzotni qoniqtirmasdi. Demak, oqibatda tajriba va izlanishlar davom etib, mil. avv. III ming yillik oxiri va II ming yilliklarda mis, qalay, rux aralashmasidan jezni kashf qildilar va bu hodisa ibtidoiy inson jamoalarining hayotida keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi va jamiyat taraqqiyoti yanada tezkorlik bilan rivojlandi. Oqibatda, qo‘shimcha mahsulotning paydo bo‘lishiga asos yaratildi. Metallurgiya tobora rivojlanishi sodir bo‘layotgan sivilizatsiyaning muhim iqtisodiy bazasi bo‘lib xizmat qildi.

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз// асарлар, 7-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999. 132-154 б.

Arxeologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha, sug'orma dehqonchilik Baqtriya va Marg'iyona hududlarida asosan mil. avv. II minginchi yilliklarning 1-choragidan boshlab keng yo'lga qo'yila boshlandi, ya'ni bir necha soy havzalarida sug'orib dehqonchilik qilish maydonlari paydo bo'ladi, ularning markazi sifatida yirik aholi punktlari, qishloq qo'rg'onlar, devorlar bilan aylantirib olingan qasr qo'rg'onlar va ilk shaharlar paydo bo'lib, ular vohalarda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy markazlar hisoblangan, jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan. SHunday taraqqiyot jarayonida O'rta Osiyoning janubiy sarhadlarida qadimgi dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog'liq tarixiy-madaniy mintaqalar ancha erta shakllanadi. Arxeolog va etnograf hamda lingvist olimlar «Avesto» ma'lumotlarini ko'p yillik qo'lga kiritilgan boy arxeologik ma'lumotlar bilan qiyosiy solishtirib o'rganib, ayni vaqtda, ya'ni ahamoniylar davrigacha O'rta Osiyoda ikkita yirik siyosiy birlashma «Katta Xorazm» va «Baqtriya podsholigi» bo'lganligi haqidagi xulosaga keldilar. Aslida O'rta Osiyo, xususan, uning janubiy viloyatlari o'tmish tarixini o'rganishga qiziqish XIX asrning 2-yarmidan boshlangan bo'lsa-da, biroq bu ishlar o'tgan asrning 30-yillaridan ancha keng tus oladi va kuchayadi. Bu hududlarda turli yillarda ko'pgina arxeolog olimlar samarali ish olib bordilar. Jumladan, P.Denike, M.M.Dyakonov, L.I.Albaum, G.A.Pugachenkova, V.I.Sarianidi, A.A.Asqarov, R.Sulaymanov, V.M.Masson, A.S.Sagdullaev, SH.R.Pidaev, SH.B.SHaydullaev, A.F.Ganyalin, YA.G'.G'ulomov, B.A.Kuftin, B.A.Litvinskiy, A.A.Marushenko, M.Mamedov, E.V.Rtveladze, T.Annaev, Z.Hakimov, I.S.Masimov, N.N.Negmatov, E.V.Sayko, S.P.Tolstov, B.N.Udeimurodov, T.SH.SHirinov va boshqalar shular jumlasidan bo'lib, o'rganilayotgan davr tarixini tiklashga munosib hissa qo'shdilar.²

Qadimdan O'rta Osiyoning janubida, Kopetdog' va Pomir tog'oldi hududlarida o'troq dehqonchilik madaniyatli qabilalar yashagan bo'lib, ular xo'jalik madaniy turmushda ancha ilgarilab ketishga erishgan edilar. Bunday ma'qul tabiiy geografik va ekologik sharoiti kelishgan dehqonchilik vohalar va

² Журакулов М.Ж. Ўрта Осиё урбонизацияси тарихи. Самарқанд.: СамДУ. 2008. 7-бет.

tog'oldi pastqam hosildor joylarda Anovtepa, Namozgoh, Sopolli, Oltintepa, Gonur, To'g'oloq, Jarqo'ton, Dashli singari ilk shaharlar qad ko'tarib, ular o'z navbatida shu dehqonchilik vohalarining markazlari ham hisoblangan. SHuni aytish lozimki, bunday ilk shaharlarning ayrimlari mavsumiy suvga ega bo'lgan arid, ya'ni qurg'oqchilik bilan bog'liq joylarda ham vujudga kelgan. Masalan, O'rta va YAqin SHarqda joylashgan Afg'oniston, Eron, Falastin, Suriya va boshqalarini shundaylar jumlasiga qo'yish mumkin. Umumiy miqyosda qaralganda janubiy O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik madaniyati, asosan, vohalar bo'ylab rivojlangan. Vohalar bo'ylab olib borilgan dehqonchilik xo'jaligida ham mavjud shart-sharoitlarga nisbatan biri ikkinchisidan ayrim holatlarda farq qilgan. Masalan, sersuv yoki doimiy oqar suvga serob bo'lgan vohalarda dehqonchilik keng tus olgan, natijada, bunday joylarda o'z davrining yirik makonlari – ilk shaharlar ertaroq tashkil topgan. Bunday shaharlarning atrofidagi shaharmonand shaharlar bilan uzviy rivojlangan bir necha dehqonchilik qishloqlari ham bo'lib, ular shu shaharlarga tobe bo'lib, madaniy xo'jalik aloqalarini yuritishganlar, qabilalararo kelishmovchiliklar tufayli vujudga kelgan bosqinchilik to'qnashuvlarda esa shu markaz shaharlar panohida omonlik saqlashganlar.

60-yillarda keng ko'lamda bajarilgan arxeologik tekshirishlar tufayli, arxeolog olimlarimiz qo'lida Qadimgi Baqtriya va Marg'iyona tarixiy viloyatlari o'tmish tarixi haqida katta hajmdagi manbalar to'plandi. Ayniqsa, O'zbekistonning janubiy vohalarida ish olib borgan olimlar A.A.Asqarov, A.S.Sagdullaev, Afg'onistonning shimoliy muzofotlarida tadqiqot olib borgan V.I.Sarianidi rahbarligidagi guruh, Marg'iyona sug'orma vohalarida tekshirish ishlari olib borgan V.M.Masson rahbarligidagi guruh I.S.Masimov, M.Mamedov kabi arxeologlar o'rganilayotgan tarixiy viloyatlarning ibtidoiy va antik davrlariga mansub katta hajmdagi arxeologik manbalarni qo'lga kiritishib, natijada yangi xulosalarga boy bo'lgan qator asarlar vujudga keldi. SHulardan A.A.Asqarovning «Qadimgi Margush» (1990), A.A.Asqarov va T.SHirinovlarning «Janubiy O'rta Osiyoning jez davri ilk shahar madaniyati» (1993), V.M.Massonning «Oltintepa» (1981), A.S.Sagdullaevning «Qadimgi Baqtriyaning dala hovlilari» (1987) kabi mualliflar

asarlarning joriy qilinishi Janubiy Oʻrta Osiyoda jez va ilk temir davrlarida sodir boʻlgan tarixiy jarayonlar haqidagi avvalgi tushunchalarni oʻzgartirib yubordi.

Bundan tashqari, Oʻrta Osiyoni ikkinchi safdagi sivilizatsiya oʻlkasi deb bilishning asosiy sababi, bu viloyatlar Qadimgi SHarq singari hali atroflicha oʻrganilgan emas edi. Chunki bu jarayonni keyingi yillardagi tarixiy-arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlamoqda. Nima boʻlganda ham, Baqtriya va Margʻiyona arxeologik majmuasi bosqichi davrida, yaʼni ahamoniylargacha vujudga kelgan bu hududdagi davlatlar oʻzlarining tashkil topish, madaniy xoʻjalik kabi xususiyatlari bilan SHarqdan muayyan farqlansa-da, ammo SHarq sivilizatsiyasining qoʻshni viloyatlarga ijobiy taʼsiri boʻlganligini aytish lozim, albatta.

“Janubiy Turkmanistonda sugʻorma dehqonchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi” masalasi ilgari ham oʻrganilgan boʻlsada biz yana ushbu mavzuni mustaqillik davri va ruhida oʻrganishni lozim topdik. Mavzuni oʻrganish jarayonida men Janubiy Turkmanistondagi Joyitun, Namozgohtepa, Oltintepa kabi tarixiy-arxeologik manbalarga boy yodgorliklar misolida kengroq oʻrganib chiqishga harakat qildim.

I BOB. JANUBIY TURKMANISTONDA DASTLABKI DEHQONCHILIKNING VUJUDGA KELISHI

Joytun urugʻ – jamoalarining dehqonchilik madaniyati.

Eng qadimgi dehqonchilik madaniyati izlari Turkmanistonda yaxshi oʻrganilgan. Janubiy Turkmanistondagi Kopetdogʻ tizmasining shimoliy togʻbagʻri tekisligi teritoriyasi mamlakatimizning dastlabki dehqonchilik madaniyati tashkil topgan markazlaridan biri ekanligi isbotlangan. Bu teritoriyada yashagan jamoalar xoʻjaligida dehqonchilik neolit davrining dastlabki bosqichlaridayoq muhim oʻrin tutgan. Bu haqdagi arxeologik maʼlumotlar 30-

yillarga to'g'ri keladi. Biroq Janubiy Turkmanistonni arxeologik jihatdan astoydil o'rganish ishlari 1952 - yildan, ya'ni Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasining bu erda tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yishidan boshlandi. Turkmanistonda qadimgi dehqonchilik madaniyatini o'rganish sohasida, avvalo, B. A. Kuftin, A. A. Marushenko, so'ngra 1955 - yildan V. M. Masson, D. Durdiev, O. K. Berdiev kabi arxeologlar katta tadqiqot ishlari olib borib, bu madaniyat haqida juda qiziqarli ma'lumotlar to'plashga erishdilar. Janubiy Turkmaniston hududida dastlabki ibtidoiy dehqonchilik madaniyati tarixini o'rganish Joyitun qishlog'ini tadqiq qilishdan boshlandi. Bu yodgorlik Ashxaboddan 30 km shimoli-g'arb tomonda, Qoraqum tizmasining boshlang'ich mintaqasidagi qumlik tepalarning birida, qadimgi daryo deltai qirg'og'ida joylashgan.³ Aslida «joyi tun», deb shu yodgorlik yaqinida joylashgan suv to'planadigan pastqam qoq joyga aytiladi. Joyitun tepaligining nomi ham shunga asosan adabiyotlarda shartli qabul qilingan. Joyitun qishlog'i qoldig'ini arxeologik jihatdan o'rganish tufayli ibtidoiy dehqonchilik xo'jaligiga doir katta material to'plandi. So'nggi yillarda bu erda arxeologik ishlar keng ko'lamda olib borildi va natijada Kopetdog' tizmasi etaklaridan yana shunga o'xshash bir necha qadimgi dehqon qishloqlari qazib o'rganildi.

Jumladan, Bami, Tug'oloqtepa, CHag'illitepa, Munchoqlitepa, CHo'pontepa kabilar shunday yodgorliklar tipidan bo'lib, ular qadimgi dehqonchilik madaniyatiga oid qiziqarli materiallar berdi.

Turkmanistonning boshqa hududlarida yashagan neolit qabilalari ovchilik, baliqchilik va terimchilik xo'jaligi asosida tirikchilik o'tkazganlar. Mamlakatning janubiy serhosil vohalarida esa o'troq dehqon va chorvador qabilalar yashagan ekan. Bunday ishlab chiqaruvchi xo'jalikning tashkil topishida tabiiy sharoitning mavjudligi muhim rol o'ynagan. O'sha zamonlarda Kopetdog' tog'i jilg'a-soylaridan hosil bo'lgan suvlar kichik daryochalarni tashkil qilib, vohaga hayot bag'ishlagan. Ayniqsa, sel, toshqin suvlari natijasida tashkil topgan serxosil

³ Журакулов М.Ж. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. Т.: "Ўқитувчи". 1984. 96-бет.

vohalar ibtidoiy kishilarning oddiy dehqonchilik yuritishiga ma'lum qulaylik tug'dirgan, Bunday vohalarda sun'iy sug'orish usulida dehqonchilik qilish yaxshi natija bergan. Bu atrofda yashagan ibtidoiy jamoalar dehqonchilikni liman usulida olib borgan. Bu usul shundan iborat bo'lganki, jilg'alardan kelgan toshqin suvni sun'iy ravishda dalaga qaytarib, ya'ni jilovlab, ekin maydonlarini cheklarga bo'lib, so'ngra g'alla ekishgan. Bu usul yuqori hosil manbai bo'lmasada, biroq, shu tarzda dastlabki dehqonchilik qilingan. Agar dastlabki vaqtlarda toshqin suv bosgan uchastkalarda dehqonchilik qilingan bo'lsa, keyinchalik asta-sekin sun'iy sug'orish usuli qo'llanilgan.

Mana shunday dastlabki ibtidoiy dehqon qishloqlaridan biri Joyitun hisoblanadi. Yodgorlik bir necha yillar davomida qazib ko'rildi va qadimgi dehqon jamoalarining turmush faoliyati bilan bog'liq juda qiziqarli ilmiy ma'lumotlar olindi. Ma'lum bo'lishicha, qishloq uchta davriy qatlamdan iborat bo'lib, bu qatlamlar bu erda kishilarning uzoq zamonlar yashaganligidan guvohlik beradi. Arxeologik usul bilan birin-ketin qazilib ochilgan uy-joy binolari, hovli va xo'jalik binolari neolit davrida kishilarning me'morchilikda erishgan yutuqlaridan dalolat beradi. Binolar deyarli to'rtburchak tarzida bo'lib, qurilish materiallari sifatida tuxumsimon, silindr shakllaridagi loy g'ishtlardan foydalanilgan. Bino qurishda qo'llanilgan bu «g'isht» shakllari doimiy takomillashtirilib borilgan. Xonalarning pollari ganch va ayrim hollarda ohak erntmasi bilan tuproq aralashtirilib suvalgan. Devor qurish va suvash ishlarida somon kam qo'llanilgan. Bunday ibtidoiy dehqonlar me'morchiligiga oid binolar qoldiqlari Joyitun madaniyati doirasiga taalluqli boshqa ko'pgina yodgorliklardan ham topildi. Yangi tosh zamonida ibtidoiy jamoalarning bu borada erishgan yutuqlari turmushda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. SHuning uchun ham neolit davridagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan bu madaniyatni Joyitun madaniyati deb aytiladi.⁴

⁴ Массон В.М. Поселение Джайтун. (Проблема становления производящей экономики) // МИА, №180, Л., 1971. стр-79-80.

Joyitun madaniyati Janubiy Turkmanistondagi eng qadimgi dehqon va chorvador ajdodlarimizning madaniyatidir. Joyitun qishlog‘idan hamda shu tipdagi ko‘pgina yodgorliklardan bu madaniyatli qabilalarning xo‘jalik turmush faoliyatlari taraqqiyot darajasini belgilovchi ko‘pgina boshqa topilmalar ham qo‘lga kiritildi. SHulardan mehnat qurollari, turmush buyumlari hamda san‘at namunalari qiziqarlidir. Joyitunliklar o‘z mehnat qurollarini asosan turli tosh jismlaridan, ko‘pincha esa chaqmoqtoshlardan hamda suyak va yog‘ochlardan yasashganlar. Biroq suyak va yogoch qurol-aslahalar bizgacha juda kam etib kelgan. Tosh topilmalari tarkibidan o‘zaklar keng joy oladi. Ular turlicha bo‘lib prizma va konussimonlari ko‘proq qismini tashkil qiladi. Bunday tosh o‘zaklardan turli hajmdagi, asosan pichoqsimon paraqalar ajratib olinib, ulardan qurol tig‘lari yasashganlar. Tosh paraqalar Joyitun industriyasining asosiy komponenti hisoblanadi. Ibtidoiy joyitunliklar tosh paraqalaridan turli qurol-aslahalar yasashning etuk ustalari bo‘lganlar. Jumladan shu tipdagi yodgorliklardan topilgan qadamatosh o‘roq tig‘lari, turli shakldagi randalar, qirg‘ichlar, arratishli buyumlar, payrahasimon qurollar bundan guvohlik beradi. Ayniqsa, qadamatosh qurol qoldiqlari serob uchraydi. Bu tarzda tosh qurollar aslida o‘roq tig‘lari bo‘lib, joyitunliklarda dehqonchilik kasbi etakchi xo‘jaliklardan bo‘lganligini bildiradi. YOdgorliklar zaminidan ko‘pgina geometrik shakllardagi mikrolitlar topildi, ular o‘rim-yig‘im hamda turli narsalar kesuvchi asboblarning qadama tig‘lari sifatida qo‘llanilgan. Bu erda geometrik shakldagi mikrolitlarning keng tarqalishi Joyitun madaniyatining muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Bunday qurollarning suyakdan yoki yog‘ochdan dastalari bo‘lgan. Kaspiy dengizi bo‘yida joylashgan Jabal g‘oridan shunga o‘xshash qurol-aslaha qoldiqlari topilgan edi. Biroq Jabal g‘oridan farqli ravishda joyitunliklar yangi tarzda xo‘jalik egalari sifatida bunday shakldagi geometrik mikroparaqalarni qadama tig‘ sifatida qo‘llashgan ekan. Ibtidoiy qurollarning funksiyalarini aniqlashda olimlarimiz katta yutuqlarga erishdilar. Xullas, Joyitun madaniyati tosh industriyasining muhim xususiyati qurollarning paraqalardan ishlab chiqarilishidadir. Ammo bu erda tosh parchalaridan (otshep) yasalgan qurollar ham

uchraydi va ikkinchi bor, ya'ni qayta o'tkirlanmagan qirrali paraqalardan ham kesuvchi asbob sifatida foydalanilgan. Joyitun tipidagi yodgorliklardan topilgan tosh randalar burg'ular va shu kabi ko'pgina qurol turlari boshqa qo'shni territoriyalardan topilgan arxeologik komplekslardan katta farq qilmaydi. Joyitunliklar silliqlash usuli bilan boltalar yasashni bilganlar. Jumladan, bu erdan topilgan teshasimon va bolta qurollar bundan dalolat beradi.

S. A. Semyonovning tajribalari natijalariga ko'ra, yumshoqroq toshdan silliqlanib, yasaladigan bitta tosh bolta uchun 2,5—3 soat vaqt va shunday usulda nefritdan tayyorlanadigan bitta bolta uchun 10—15 soat vaqt sarflanadi. Demak, joyitunliklarning ish faoliyatini hisobga olganda, oddiy qurollarni ishlab chiqarish uchun uncha ko'p vaqt talab qilinmagan. Yodgorlik zaminidan topilgan palaxmon toshlari, keli, ya'ni o'g'ir hamda oddiy qo'l yorg'uchoq asboblari ham joyitunliklar turmushida keng qo'llanilgan ekan.

Joyitun madaniyatining so'nggi davriga doir yodgorliklardan biri CHag'allitepadan ham dehqonchilik faoliyatiga taalluqli qiziqarli topilmalar olindi. Masalan, hayvon suyaklaridan yasalgan belkuraklar, igna, juvoldiz va boshqa teshuvchi hamda tikuvchi asboblari, hayvon terilarini tozalaydigan qurollar shular jumlasidandir.⁵

Bu xildagi qiziqarli yodgorliklardan yana biri CHO'pontepa hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida bu erdagi qishloqdan neolit dehqonlarining mehnat faoliyatiga doir ko'pgina material olindi. Ayniqsa, kuzatilgan dafn qilish urf-odatlari qiziqarlidir. Yodgorlik yaqinidan bir necha qabrlar topilib o'rganildi. O'lganlarni qabrga ko'pincha g'ujanak tarzda yon tomonlama yotqizib, ustlariga qizil bo'yoq sepib ko'mishganlar. Bunday dafn odatlari Janubiy Turkmanistondagi mezolit davriga oid Qaylu qabristonida ham kuzatilgan edi. Demak, bunday urf-odatlarni joyitunliklar ehtimol, o'zlarining Kaspiy bo'yi ajdodlaridan meros qilib olgan bo'lishlari mumkin.

Joyitun qabrlarining ibtidoiy madaniyatini o'rganishda Pessejiktepa muhim ahamiyatga egadir. Yodgorlik 1968—1969 yillarda tadqiq qilingan.

Qadimgi dehqonlarning bu qishloq qoldiqlari To'g'oloq-tepaga yaqin atrofda joylashgan. Bu erdan qishloq qoldig'i qazib ko'rildi va ibtidoiy dehqonlarning me'morchilik madaniyatiga doir qiziqarli ma'lumotlar olindi. Joyitun qishlog'iga qaraganda bu yodgorlikdan dehqonchilik tirikchiligi xo'jaligi bilan bog'liq ko'plab buyumlar topildi. Bu erda yashagan qadimgi aholi o'z imoratlarini qadimgi shakldagi g'ishtlardan qurishgan va binolarning ichki devorlarini qora hamda qizil rangda geometrik tarzda naqshlar bilan bezagan. Turli hayvonlarning suratlarini solgan. Topilgan qabr qoldiqlari Cho'pontepadagi dafn urf-odatlarini eslatadi. Jamoa oilalariga taalluqli uy-joy qoldiqlaridan tashqari jamoa binosi funksiyasini bajaruvchi imorat qoldiqlari ham topildi.

Joyitunliklar kulolchilik hunarmandchiligi sohasida ham tajribaga ega bo'lganlar. Tadqiq etilgan bu tipdagi yodgorliklardan sopol ro'zg'or idishlarining bir necha xillari topildi. Joyitunliklar sopol idishlarni oddiy usulda yasashgan. Loyga qum, somon va boshqa komponentlar aralashtirib, so'ngra pishirilgan loyni tasma tarzida yasab, keyin uni spiralsimon tarzda qalashtirib, ustini qo'l va boshqa maxsus silliqlovchi asboblardan tekislab, oftobda quritganlar. So'ngra bunday idishlarni gulxanda pishirganlar. Bu madaniyat uchun yaxshi pishirilgan, tagi yassi sopol idishlar xarakterlidir. Bu vaqtda kishilar sopol charxlarni va xumdonlarni ixtiro qilmagan bo'lsalar kerak. Joyitunliklar turli shakldagi sopol idishlarga ega bo'lganlar va ularni har xil ranglar bilan hamda asosan to'g'ri, to'liqinsimon chiziqlar bilan naqshlaganlar. Sopol idishlar ancha qadrlangan. Singan idishlarni yamash kabi ustalik ishlari amalga oshirilgan. Sopol xumdlarning topilishi qiziqarlidir. Aftidan, bunday idishlarda ozuqalar – g'alla va boshqa tirikchilik mahsulotlari saqlangan bo'lsa kerak. Yodgorliklardan topilgan sopol ro'zg'or idishlarini o'rganish shundan dalolat beradiki, ibtidoiy hunarmandlar o'z kasblarini avlodlariga o'rgatib, doimo takomillashtirib borgan.

Joyitunliklarda zargarlik san'ati ham o'z davriga nisbatan rivoj topgan. Yodgorliklardan topilgan turli bezaklar bundan dalolat beradi. Ayniqsa, turli toshlardan, hayvon va parranda suyaklaridan hamda dengiz chig'anoqlaridan

⁵ Журакулов М.Ж. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. Т.: “Ўқитувчи”. 1984. 98-99-бетлар.

yasalgan taqinchoqlar kishi diqqatini tortadi. Joyitundan topilgan chig'anoqlarning nusxalari faqat Hind okeani qirg'oqlarida bo'ladi. Demak, joyitunlik neolit qabilalar qo'shni va uzoq masofada yashovchi jamoalar bilan ayriboshlashda va madaniy aloqada bo'lganlar. Bu madaniyatga oid kishlarning haykaltaroshlik ishlari ham qiziqarlidir. Jumladan, hayvonlar qiyofasini toshdan silliqlab ishlash, mayda tuyoqli hayvonlar va qoramollarning aksini hamda odam qiyofalarini loy orqali tasvirlash ancha ustalik bilan bajarilgan. Demak, ibtidoiy haykaltaroshlar o'zlarini qamrab olgan muhitni san'at orqali ifodalash qobiliyatlariga ega bo'lgan. Ip yigirishda qo'llaniladigan urchuqbosh qoldiqlari, sopol idish devorlarida saqlangan mato izlari joyitunliklarda oddiy to'qimachilikning va shunga asosan dastlabki ustachilik uskunalarining ixtiro qilinganligi haqida fikr yuritishga imkon beradi. Bu esa insoniyat madaniyati tarixida muhim xo'jalik-iqtisodiy yutuqlaridan hisoblanadi.

Joyitun yodgorliklaridan to'plangan turli arxeologik moddiy madaniyat topilmalari bu qabilalarning turmush xo'jaligini tarixan tasavvur qilish imkoniyatni berdi. Joyitunliklar xo'jaligi asosini moddiy oziq-ovqat ishlab chiqarish tashkil qilgan. Xo'jalikda etakchi rolni dehqonchilik egallagan. Ammo chorvachilik va ovchilik ham tirikchilikning muhim vositalari hisoblangan. Aslini olganda, bu qabilalar qadimgi dehqonlar edi. SHuning uchun ham tirikchilikning bosh vositasi dehqonchilik bo'lgan. Buni arxeologik topilmalar tasdiqlaydi. Masalan, CHo'pontepadan topilgan mayda o'tkirlangan qadama toshlardan 500—600 ta o'roq yasash mumkin. Joyitundan topilgan bitta imoratga 10 tonnaga yaqin somon sarflangan.⁶ Joyitun qishlog'idan 1097 qadama tosh topildi. Agar 1—3 ta qadama toshdan bitta o'roq yasalishini hisobga olsak, unda bu topilma materialidan qariyb 400 ta o'roq yasash mumkin bo'ladi, Umuman, Joyitun qishloqlari zaminidan topilgan tosh buyumlarning 37 % i va CHag'allitepada esa 31 % i o'roq qadama tig'lari tashkil qiladi. Bu har bir xonadon a'zolari deyarli shunday asboblar bilan ta'minlanganligidan guvohlik beradi. Masalan, Joyitun 30 ta oiladan tashkil topgan

⁶ Массон В.М. Поселение Джайтун. (Проблема становления производящей экономики) // МИА, №180, Л., 1971. стр-85-86.

qishloqdan iborat bo'lib har bir uy xonasidan o'roq qadama tig'lari, CHag'allitepadagi bunday uylarning ko'pidan esa o'roq, yorg'uchoq keli dastalari kabi asboblar topildi.

Joyitun madaniyati qabilalari bug'doy, arpa kabi boshqoli don ekinlarini bilganlar. Masalan, CHo'pontepa, Bami, CHag'allitepalardan shunday don qoldiqlari alomati topildi. Bu dehqonlar dastlab boshog'i ikki qator donli arpa bilan tanish bo'lganlar. Aslida madaniylashtirilgan olti qator donli arpa ham mana shu ikki dator donli arpa navidan kelib chiqqan. Ikki qatorli donga ega bo'lgan arpa navi yomg'ir suvi bila sug'oriladigan yoki selob toshqin suvli erlarda ko'proq ekilgan. Olti qatorli arpa esa doimiy sug'orish usulida dehqonchilik qilnadigan o'lkalarda qo'llanilgan. Aftidan, joyitunliklar bu navlar bilan qadimdan tanish bo'lgan bo'lsa kerak. SHunday arpa doni qoldiqlari miloddan avvalgi VII – VI ming yilliklarga oid tog'li Kurdistondagi Jarmo va Tetaguron qadimgi dehqon qishloqlari zaminidan ham topilgan.⁷

Janubiy Turkmanistonda, jumladan qadimgi Joyitun qishloqlari atrofida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda, neolit davrida bu rayon dehqonchilik mintaqasiga aylantirilgan. Bu atrofda Qorasuv daryochasining qadimgi o'zanlarining saqlanib qolishiga qaraganda, ibtidoiy dehqonlar uning suvidan sun'iy sug'orish usuli bilan xo'jalikda foydalanishgan.

Joyitunliklar ko'pincha toshqin suvlardan foydalanishgan. Toshqin suv bosgan joylarda dehqonchilik qilishgan. Er so'yil, uchi o'tkir tayoqlar bilan bo'shatilgan. Hayvon suyaklaridan, tig'i esa tosh parchasidan, hayvon shoxlaridan yasalgan motiga, ya'ni qo'l omochlari muhim dehqonchilik qurollari sifatida etnografiyada keng ma'lum.

Joyitun, CHag'allitepa kabi yodgorliklardan topilgan ko'mir qoldiqlari bu atrofda neolit davrida terak, qayrag'och, archa, zarang, yulg'un kabilar o'sganligidan dalolat beradi. Bu daraxtlardan xo'jalikning turli zaruriyatlari uchun va o'tin sifatida ham foydalanilgan.

⁷ Журакулов М.Ж. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. Т.: “Ўқитувчи”. 1984. 101-102-бетлар.

Joyitun madaniyatiga doir dabilalarda chorvachilik va ovchilik kasblari ham ozuqa ishlab chiqarishda muhim rol o'ynagan. Chorvachilik ovchilikka nisbatan etakchi o'rinda edi. Ovchilik ko'pincha tasodifiy xarakterda bo'lgan. Chorvachilik esa ozuqa g'amlashning muhim maydonlaridan biri edi. Topilmalarga qaraganda, bu qabilalar xonakilashtirilgan hayvonlardan qoramol, echki, qo'y kabilarni bilishgan. Chorvachilik xo'jaligida xonakilashtirilgan itlar cho'ponlarning yordamchilari edi. Umuman, hayvonlarni xonakilashtirish ibtidoiy tirikchilikda juda muhim rol o'ynagan. Bu jarayon juda qadimiy davrlardan boshlangan edi. Masalan, Old Osiyo, Hindistonda miloddan avvalgi IX - VIII minginchi yillarda sigir, qo'y, echki va cho'chqa kabi hayvonlar xonakilashtirilgan. Evropada bu manzara birmuncha keyinroq (miloddan avvalgi IV ming yillik) amalga oshirilgan. O'rta Osiyo miqyosida hayvonlarni qo'lga o'rgatish miloddan avvalgi VII - VIII minginchi yillarga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda qo'lta kiritilgan arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, ehtimol, bu jarayon O'rta Osiyoda yanada qadimiyroq davrlarda amalga oshirilgan bo'lishi mumkin. Paleekonomiya hisoblariga qaraganda, joyitunliklarda go'sht ozuqaning 25 % i ov mahsuloti tashkil qilgan. Ibtidoiy joyitunliklar, odatda, jayron, yovvoyi to'ng'iz, yovvoyi qo'y, qulon kabi jonivorlarni ov qilishgan. Bo'ri, quyon, tulki kabi hayvonlar mo'yna zaruriyati tufayli ham ov qilingan. Ov quroli sifatida palaxmon, nayza, bumerang kabilar qo'llanilgan. Joyitun yodgorliklarida kamon paykonlari uchramaydi. Ammo kamon bularda noma'lum edi, deb bo'lmaydi. Ehtimol, ular bu yodgorliklardan topilgan o'tkirlangan tosh paraqachalaridan uchlik sifatida foydalanishgan. Chorva, ov tirikchiligidan olingan teri, jun mahsulotlari kiyim-kechak va ro'zrg'orning boshqa zaruriy talablari uchun foydalanilgan. Topilgan mehnat qurollari funksiyalarining aniqlanishiga qaraganda, toshdan, suyakdan yasalgan turli xil qirg'ichchalar hayvon terilarini qayta ishlashda keng qo'llanilgan ekan.

SHunday qilib, Joyitun madaniyatiga doir yodgorliklardan topilgan arxeologik materiallar bu qabilalarning turmush madaniyati, xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatlari hamda dunyoqarashlarini tasavvur qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Joyitun qabilalarining ijtimoiy tuzumi haqida soʻz borganda, bu yodgorliklardan topilgan imorat qoldiqlari nazarda tutilsa, bu erda matriarxat tuzumining juft oila jamoasi katta rol oʻynagan. Topilgan uylarning oʻrtacha foydali maydoni 16 m² dan 30 m² gachani tashkil qiladi. Har bir xonadonning oʻziga xos ishlab chiqarish boʻlimi, jumladan terini qayta ishlash, qurol yasash kabi hamda ozuqani saqlash joylari boʻlgan. Xonalardan topilgan oʻchoq qoldiqlari ham shunday juft oilalarning mavjudligini koʻrsatadi. Joyitun qishlogʻida taxminan 150—180 kishi yashagan. Bu jamoaning onalik huquqi prinsipida tashkil topgan oʻz majlisi boʻlgan. Pessejik va CHagʻallitepalardan ochilgan katta jamoa uy qoldiqlari ana shundan dalolat beradi.

Xullas, Janubiy Turkmaniston hududida neolit davrida yashagan Joyitun madaniyatli qabilalar tabiatga mutlaqo qaramlikdan mahsulot ishlab chiqarish xoʻjaligiga oʻtib, insoniyat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Agar paleolit davrida kishilar tabiat ato qilgan ozuqalar bilan tirikchilik oʻtkazgan, mezolit davrida ozuqa ishlab chiqarishga dastlabki qadam qoʻyilgan boʻlsa, neolit davriga kelib, Oʻrta Osiyo janubiy rayonlarida, jumladan Joyitun madaniyatli qabilalar ishlab chiqarish jarayoniga oʻtishga erishganlar. Bu jarayon kelajakda kishilik jamiyati tarixida boʻladigan katta ijtimoiy oʻzgarishlarga zamin yaratdi. SHuning uchun ham bu davrni koʻpgina tadqiqotchilar arxeologiyada “Neolit inqilobi” deb ataydi.

Joyitun madaniyatining kelib chiqishini Kaspiy boʻyi mezolit madaniyati tarkibidan izlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, Joyitunning ilk qatlamlaridan topilgan geometrik shakldagi qurollarda mahalliy mezolitning soʻnggi bosqichlariga oid elementlarning aynan kuzatilishi bu erda mezolitdan uzluksiz asta-sekin neolitga oʻtilganligini koʻrsatadi. Soʻngra Joyitun madaniyati kompleksida YAqin SHarqdagi dastlabki dehqonchilik madaniyatiga doir yodgorliklarning ayrim xususiyatlari, jumladan mehnat qurollari, meʼmorchilik, kulolchilik madaniyatlarining oʻxshashliklari qayd qilinadi. Masalan, Iroqning shimolida joylashgan va oʻrganilgan Jarmo qishlogʻi shunday yodgorliklardandir. Bunday xarakterdagi yodgorliklar Old Osiyo, Hindiston kabi mamlakatlar

hududlaridan ham ko'plab topib o'rganilgan. Neolit davrida keng va uzoq hududlarda yashagan qabilalarning o'zaro madaniy aloqalari taraqqiyotini hamda uning ma'lum darajada ta'sirini inkor qilib bo'lmaydi, albatta.

Ammo Joyitun madaniyatining vujudga kelishida mahalliy mezolit Kaspiy bo'yi ovchi va terimchi qabilalarining ta'siri kuchliroq bo'lib, ularni joyitunliklarning o'tmish ajdodlari deb hisoblash xato bo'lmaydi. To'g'ri, Kaspiy bo'yi mezolitini Joyitun madaniyatining tashkil topishida birdan-bir manba bo'lgan deb qat'iy aytib bo'lmaydi. YUqorida qayd qilganimizdek, bu madaniyatning tashkil topishida boshqa qo'shni mezolit va neolit jamoalarining ham ma'lum ishtiroki bo'lishi ehtimoldan uzoq emas. Ibtidoiy davr, shu jumladan neolit madaniyatini o'rganishda tosh buyumlar muhim va etakchi manba hisoblanadi. Arxeologiyada ko'pgina tadqiqotchilar u yoki bu qabilalarning madaniyat tarixini o'rganishda turmushda qo'llanilgan sopol idishlar muhim manba ekanligi e'tirof qilinadi. Albatta, sopol buyumlarning manba sifatidagi ahamiyatini pasaytirib bo'lmaydi, biroq loyni pishirish usulida idishlar yasashni kishilar o'tmish tariximizda nisbatan ancha keyinroq, ya'ni neolit davrida ixtiro qilishgan. So'ngra bu jarayon barcha qabilalarda birvarakayiga tashkil topmagan. SHuning uchun bo'lsa kerak, O'rta Osiyo miqyosida topilgan ayrim neolit makonlarida sopol buyum qoldiqlari kuzatilmaydi. Bas, shunday ekan, neolit davri madaniyatini o'rganishda ham tosh industriya etakchi manba bo'lib kelaveradi.⁸Arxeologiyada tosh industriya deb, tayyorlangan buyum tiplarining barqaror, doimiy muvozanatdagi yig'indisi tushunilib, bu erda toshni paraqalash texnikasi, uni ikkinchi bor qayta ishlash, ya'ni kertish usulida o'tkirlash hamda buyumlar shakllarining doimiy saqlanishi kabi shartlar hisobga olinadi. YOdgorliklarni o'rganishda mana shu asosiy prinsiplar e'tiborga olinib, teritoriyalar va turli mintaqalar zaminida topilgan komplekslarning bir-biriga o'xshashligi yoki ularning farqlari aniqlanadi. Bu metodning ahamiyati ham shundaki, industriya taraqqiyotining doimo takomillashib borishiga yoki turg'unligiga qarab jamoalarning madaniyat darajasi aniqlanadi. Mana shu asosda biror-bir, katta

⁸ Жўрақулов М.Ж. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. Т.: “Ўқитувчи” 1984. 94-бет.

teritoriyada yashagan qabilalarning umumiy madaniyat yig'indisi va shu yig'indi tarkibida lokal, ya'ni mahalliy madaniyat elementlarini mavjudligi aniqlanib, natijada shu qabilalarning gnoseologiyasi, ya'ni kelib chiqish yo'llari hamda zamonga nisbatan davri aniqlanadi. Masalan, O'rta Osiyo territoriyasidagi neolit yodgorliklarining ko'pchiligini paraqasimon texnika yig'indisi asosida birlashtirish mumkin. Ammo paraqalash texnikasi tarkibida ham turli o'ziga xos uslublarni kuzatish mumkin. SHunday ekan, O'rta Osiyoning cho'l-dasht mintaqasida yashagan ovchilik va baliqchilik bilan turmush kechirgan qabilalar kaltaminorliklar madaniyat tarixi yig'indisiga birlashadi. Ammo shu madaniyat yig'indisi tarkibida yana ikkinchi bir mahalliy madaniyat elementlariga ega bo'lgan Oqchadaryo atrofida yashagan qabilalarni misol keltirish mumkin. SHunday qilib, yodgorliklardagi topilma industriya uch nuqtai-nazardan, ya'ni paraqalash texnikasi, qayta ishlov berish va buyum turlari asosida o'rganiladi. Paraqalash texnikasi deb g'amlangan turli yirik, kichik paraqalar va shu tarzda tash uchirindilari (otsheplar)

yig'indisi tushuniladi. Qayta ishlov texnikasi deb har xil tarzda buyumlarni o'tkirlash usuli tushuniladi. Neolit davrida tash uskunalarni o'tkirlash texnik usullari turlicha bo'lgan. Jumladan, o'tmas qirrali, o'tkir qirrali va arra tishli yo'sinda tig' chiqarilgan. Odatda, tig' chiqarish qurolga mo'ljallangan tash parchasining astar yoki orqa tomonidan kertish, ezish texnikasi usulida bajarilgan. Buyum turlari yig'indisini o'rganishda ularning morfologik va texnik belgilari hisobga olinadi. Mana shu tarzda yodgorliklar industriyasining xususiyatlari aniqlanib, ularning qaysi madaniyat doirasiga mansubligi belgilanadi.

SHunday qilib, u yoki bu yodgorlik topilmalarini kompleks o'rganish tufayli biron-bir madaniyat qoldiqlari qaysi qabilalarga taalluqli ekanligini, davrini aniqlash, kelib chiqishi hamda ularning bir-birlari bilan bo'lgan madaniy aloqalarini bilib olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Demak, ibtidoiy tariximizni o'rganishda tash industriya muhim va etakchi ahamiyatga egadir. Albatta, arxeologiya sohasidagi boshqa manbalarning ahamiyatini ham pasaytirib bo'lmaydi. Tadqiqotchilarimizning so'nggi yillarda bu sohada erishgan

yutuqlarini nazarda tutsak, O'rta Osiyo neolit madaniyatining kelib chiqishi jarayoni bir ma'lum yo'nalishdan bormasdan, balki ko'p qirrali bo'lib, mahalliy madaniyat negizida va qo'shni qabilalarning ma'lum elementlari ishtirokida tarkib topgan. Miloddan avvalgi V minginchi yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyoda xo'jalik asosan ikki yo'nalishda rivojlandi.

II BOB. JANUBIY TURKMANISTONDAGI ENEOLIT VA BRONZA DAVRI DEHQONCHILIGI MANZILGOHLARI.

Janubiy Turkmanistonda eneolit va bronza davri sug'orma dehqonchiligi

Janubiy Turkmanistonda qadimgi davr arxeologiyasining o'rganish bo'yicha juda ko'p ishlar qilingan bo'lib, bular ichida eng muhimi 1948-1958-yillarda Namozgohtepada olib borilgan arxeologik ishlardir. Namozgohtepadagi ishlar natijasida Anovtepa bo'yicha qilingan davrlashtirishga bir oz aniqlik kiritildi.⁹

V. M. Masson B. A. Kuftin ishlarining davomchisi sifatida, uning xronologik davriy sistemasiga tub o'zgarishlar kirita olmasada, o'sha 6 etapning har birini ikkitadan bosqichga bo'lib o'rganish mumkinligini isbotlab berdi. G. SHmidt va B.

⁹ Исомиддинов М. Сополга битилган тарих. Т.: "Фан" 1993. 7-бет.

A. Kuftin xronologik davriy sistemasi bir-biri bilan solishtirilsa, Anov I ning «A» fazasi neolitga tegishli boʻlib, Anov I ning «B» fazasi esa Namozgoh I ga tengdir. SHuningdek, Anov II Namozgoh II ga barobar; Anov III Namozgoh III, IV, V va VI ga tengdir. Anov IV ilk temir davriga taalluqlidir. Oʻrta Osiyo ibtidoiy jamoa tuzumi tarixining Namozgoh I-III etaplari Janubiy Turkmanistonda eneolit asri hisoblanadi.

Janubiy Turkmanistonning dehqon jamoalari tarixida, V. M. Massonning fikricha, eneolit davri milodiy eradan oldingi V minginchi yillikning oxirlaridan boshlab, u to III minginchi yillikning birinchi choragigacha davom etdi. SHuningdek, Namozgoh I ilk eneolit, Namozgoh II oʻrta eneolit va Namozgoh III esa soʻnggi eneolit hisoblanadi. Eneolit davrida sugʻorma dehqonchilik va xonaki chorvachilik ibtidoiy xoʻjalikning asosini tashkil etgan. Paleografiya ilmiy-tadqiqot kuzatishlariga koʻra eneolit davrining ob-havosi, geografik iqlimi hozirgi davrdan ancha farq qilib, u vaqtda yogʻingarchilik nisbatan koʻp boʻlgan. Togʻosti soylari oʻz suvlarini choʻl zonasining ichkarisigacha olib borgan. Ana-shu soy suvlarining oʻrta oqimi rayonlarida eneolit davri qishloqlari qad koʻtargan. Ular asta-sekin oʻsha soylarning quyi oqimiga, hatto Janubiy Turkmanistonning Tejen singari azim daryolari quyi oqimigacha borib etdilar. Yangi erlarni oʻzlashtirish protsessi, ayniqsa, Namozgoh I ning oxiri va Namozgoh II davrida aktivlashdi.

Eneolit davrida Geoksar vohasi keng oʻzlashtirildi. Geomorfologik ilmiy dala tadqiqotlarining koʻrsatishicha, Geoksar vohasida eng qadimgi sunʼiy sugʻorish kanallari vujudga keladi.

Eneolit davri geoksar yodgorliklari 1960 - yillarda V. M. Masson, V. I. Sarianidi, I. N. Xlopinlar tomonidan keng oʻrganildi. Ular oʻsha davr qishloqlarining va uy-joylarining tipi haqida qimmatli materiallar toʻpladilar.¹⁰

Geoksar vohasida oʻtkazilgan arxeologik ish natijalariga koʻra, ilk eneolit davrida (Namozgoh I) urugʻ jamoalari maydoni keng makonlarda yashaganlar. Har bir qishloq, (masalan, YAssitepa) bir-biriga zich qilib qurilgan qator bir xonali

¹⁰ Хлопин И.Н. Геоксиарская группа поселений эпохи энеолита. М.-Л., 1964. стр-45.

uylardan tashkil topgan har bir uy juft oilalarga tegishli bo'lib, unda ona oila boshlig'i sifatida uni boshqargan. Boylik hali umumjamoaniki hisoblanib, uni yaratishda oilaga boshqa urug'dan vaqti-vaqti bilan kelib turuvchi erkaklar ko'maklashib turgan.

Namozgoh I davri uy-joy qurilishida birinchi bor xom g'isht ishlatilgan. Xona devorlari somonli loy bilan suvalgan. Uylar tor, kvadrat shaklida bo'lib, maydoni 10 m² ga yaqin bo'lgan. Uyga kiraverishda, chap tomonda kvadrat shaklidagi g'ishtdan ishlangan o'choq joylashgan. Xonaning bir burchagi past devorcha bilan ajratib qo'yilgan. Bu xonacha oilaning g'alla «omborchasi» bo'lsa kerak. Namozgoh I davridagi bir xonali uy-joy qurilish sistemasi, ayniqsa, geoksar vohasining Dashtlitepa yodgorligida yaxshi o'rganildi. SHuning uchun ham bu davrni «dashtlitepa» deb ham yuritiladi. Dashtlitepa qishlog'ida arxeologlar uch qator madaniy qatlam borligini aniqladilar. Qishloqning chir atrofi mudofaa devori bilan o'rab olingan.

Namozgoh II davrida qishloqlarning maydoni avvalgidek keng, ammo yirik qishloqlar atrofida mayda qishloqchalar ham qad ko'taradi. Namozgoh II davri uy qurilish planlashtirilishi geoksar vohasining YAlang'ochtepa, Mo'lalitepa (arxeologik adabiyotlarda uni Mullalitepa deb yuritiladi, ammo bu xato bo'lib, aslida mo'la – bu burj demakdir, ya'ni burjlitepa ma'nosini anglatadi) kabi yodgorliklarida yaxshi o'rganilgan.

Geoksar vohasi uchun eneolit asrining bu davri «yalang'och davri» deb ham yuritiladi, YAlang'och davrida urug' jamoalarining qishloqlari mudofaa devorlari bilan o'rab olinib boshlaydi. Qishloqlarning hamma qismi devor ichiga olinmay, balki ularning markaziy qismigina devor bilan o'rab olingan. Namozgoh II davri mudofaa devorlari ko'p burchakli bo'lib, har bir burchakning uzunligi 8,5 – 10 metrga teng. Ikki burchak uchrashuv nuqtasida doira shaklida xona joylashgan. Ularning eshiklari qishloq ichiga qaratilgan. Mudofaa devor sistemasida

joylashgan bu xonalarni V. M. Masson bo'lajak mo'la - burj bo'lsa kerak, deb hisoblaydi.¹¹

Jamoa a'zolari yashaydigan xonalar avvalgidek tor, maydoni 10 m² dan oshmaydi, ularning o'chog'i eshikdan kiraverishda, chap devor tagida joylashgan. Yalang'och davri uy-joy qoldiqlari birgina Mulali va Yalang'och tepalar misolidagina o'rganilib qolmay, balki ular Oxchatepada, Oynatepada, Geokar 1, 7, 9 nomli tepalarda ham o'rganilgan.

Yalang'och etapi (Namozgoh II) uy-joylarining tuzilishi jihatidan 3 guruhga bo'linadi: 1) o'choqsiz to'g'ri burchak shaklidagi uylar; 2) o'choqli to'g'ri burchak shaklidagi uylar; 3) dahlizli uylar. Bu esa Namozgoh II etapida ko'p xonali uy-joy qurilishi sistemasining paydo bo'layotganligidan guvohlik beradi.

Namozgoh II davri ko'p xonali uylari orasida maydoni keng doira shaklidagi xonalar ham uchraydi. Ular asosan urug' jamoasi uylarining markazida joylashgan. Ularning devorlari ancha mustahkam, ularda ikki qismga bo'lingan to'g'ri burchakli o'choqlar uchraydi. Ba'zi bir yodgorliklarda (masalan, Anovtepa va YAssitepa) shunday o'choqli uylarning vujudga kelishi, hatto Namozgoh I etapining oxirlaridan kuzatiladi. Arxeolog olimlar bunday o'choqli uylarni «o't og'asining uyi» deb hisoblamoqdalar.

Eng qadimgi olovga sig'inish ibodatxonalari deb atalgan bu xonalarning old tomoni kun chiqishga qaratilgan. Ularning ichida xo'jalik o'choqlarining qoldiqlari va uy-ro'zg'or buyumlari uchramaydi. Demak, bunday uylar eneolit davrining yalang'och etapidan boshlab ibtidoiy urug' jamoa a'zolarining eng qadimgi olovga topinish ibodatxonalari sifatida paydo bo'lgan.

Eneolit asrining so'nggi etapi Namozgoh III davrida qadimgi dehqonchilik qishloqlarining hududi yanada kengayadi. Bu davr uy-joy qurilish planlashtirishi geoksar vohasida Geoksar I va Cho'ngtepa, Artik rayonida esa Qoratepa misolida keng o'rganildi. Qora tepada Namozgoh III etapiga oid 130 dan ortiq ko'p xonali uy-joy qoldiqlari ochilgan. Bular alohida xonadonlarga mo'ljallangan xo'jalik

¹¹ Шишкин И.Б. У стен великой Намазгаи. М.: «Наука», 1977. стр-88-89

komplekslarini tashkil etgan.¹² Ular asosan dahlizli bo‘lib yotoqxona o‘rtasida sandal o‘rni saqlangan. Bu ko‘p xonali uy tarkibida torroq kichik xona bo‘lib, unda o‘choq yoki sandal qoldig‘i uchramaydi. Bunday xonalar oila «ombori» sifatida foydalanilgan.

Hamma joyda sodda qilib ishlangan geometrik shakllar o‘rnida murakkab, jimjimador nozik gullar, “gilam gulli naqsh” deb yuritilgan bezak paydo bo‘ldi. Sopol sirtiga dayvon va parraidalarning suratlarini tushirish odati yanada keng tus oldi. Sopollarda hayvon va qush suratlarining paydo bo‘lishi - bu ibtidoiy urug‘doshlik jamoasi diniy va ideologik taassurotlarining «totemlar» ko‘rinishida namoyon bo‘lishining guvohi edi.

Eneolit davri xo‘jaligining asosini sug‘orma dehqonchilik va xonaki chorvachilik tashkil etgan. Namozgoh II etapidan boshlab sun‘iy suv omborlari qurilgan. Masalan, Mulalitepa yaqinida qadimgi hovuz qoldig‘i o‘rganildi. Uning hajmi 3500 m³ ekan. Namozgoh III davriga doir kanallar borligi aniqlandi. Geoksar I qishlog‘i yaqinida daryo o‘zani bo‘lib, 1,5 km masofaga suv olib borilgani, u suv esa o‘sha kanal etagidagi ekinzorlarni sug‘orish uchun ishlatilgani aniqlangan.

Dehqonchilikda keng tarqalgan boshoqli o‘simliklar arpa va bug‘doy bo‘lib, olimlar Janubiy Turkmaniston eneolit davri dehqonlarining ko‘proq arpa ekanliklarini aniqladilar.

Eneolit davri yodgorliklarini qazish vaqtida ko‘plab hayvon suyaklari topildi. Paleozoologlarning fikricha, uy hayvoni sifatida qoramol, qo‘y va echki boqish keng yoyilgan. SHunday qilib, Janubiy Turkmaniston ibtidoiy jamoalari dehqonchilik xo‘jaligi bilan bir qatorda xonaki chorvachilik bilan dam shug‘ullangan ekanlar.

Eneolit asri ijtimoiy munosabatlariga kelganda, hali bu davrda ona urug‘i jamoada hukmron edi. Bunga misol qilib xona va mozorlardan topilgan

¹² Жўракулов М.Ж. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. Т.: “Ўқитувчи”. 1984. 142-143-бетлар.

ayollarning haykalchalarini ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, Namozgoh I etapida ayollarning mavqei kuchli ekanligi yaxshi namoyon bo'ladi.

Namozgoh II etapidan boshlab esa asta-sekin erkaklarning jamoada, oilada urni va roli sezila boshladi. Avvalgi urug'doshlik jamoalari o'rnida asta-sekin ishlab chiqarish jamoalari rasmiylashib borayotganini ko'ramiz. Ammo ayollar hali jamoada, oilada o'z o'rnini erkaklarga bo'shatib bermagan edi.

Namozgoh III etapiga kelib, ko'p xonali xo'jalik komplekslarining rasmiylashuvi bilan ishlab chiqarish jamoalari jamiyatning asosiy yacheykasiga aylannb bordi. Bu esa o'z navbatida jamoada, oilada erkaklar rolining oshib borishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Ishlab chiqarish jamoalarida bir oz bo'lsada, ortiqcha mahsulot paydo bo'ldi. Ortiqcha mahsulot esa o'z navbatida ayriboshlashga yo'naltirildi.

SHunday qilib, jamoalararo natural mol ayriboshlash kuchaydi. Bu esa eneolit davri jamoasida yuz bergan progressiv yo'nalish edi.

Eneolit davri urf-odatlar va motam marosimlariga kelsak, bu davrda murdalarni qabrga yonboshi bilan oyoq-qo'llarini g'ujanak qilib qo'yish odati paydo bo'ladi. Janubiy Turkmanistonda Namozgoh I etapi mozorlari kam o'rganilgan. Ammo Namozgoh II va Namozgoh III davriga oid qabrlar ko'p ochildi. Muzorlarda negadar qabr ashyoviy dalillari kam. Ba'zi bir qabrlarda ayollar ma'budasi uchraydi. Namozgoh III etapidan boshlab qabristonlarda kollektiv mozorlar uchray boshlaydi, xom g'ishtdan kvadrat va doira shaklida qurilgan mavzoleylar paydo bo'ladi. Bu mavzoleylar urug' mavzoleylari bo'lsa kerak. Ularga o'lik har xil vaqtda qo'yilgan. V. M. Massonning yozishicha, Qoratepada Namozgoh III etapiga oid 4 ta mavzoleyda faqatgina ayollar skeletlari uchragan. Bu esa ayollarga nisbatan hurmat va e'tiqodning hali yuqoriligidan dalolat beradi. Eneolit davri haykallarining deyarli hammasi ayollar ma'budasi. Faqat Namozgoh III etapining oxirlarida bitta-yarimta erkaklar haykali paydo bo'la boshlaydi. Bu faktlar hali eneolit asri tom ma'noda matriarxat urug'doshlik jamoasi ekanligidan guvohlik beradi.

SHunday qilib, Oʻrta Osiyoda eneolit asriga doir yodgorliklar asosan Janubiy Turkmaniston dehqon jamoalarining Namozgoh I, II va III davri haqida tushuncha beradi.

Eneolit davri aholisi Janubiy Turkmaniston togʻoldi zonalarida, togʻ soylari va daryolari quyi havzasi tumanlarida tashkil topgan yirik qishloqlarda yashadilar. U qishloqlar bir necha yuz va ming yillar davomida qadimgi dehqon jamoalarining turar joylari boʻlgani uchun ularning hududi tabora kengayib, koʻp qatlamli yirik aholi punktlariga aylanib bordi. Ularning xoʻjaligida dehqonchilik bilan birga xonaki chorvachilik ham rivojlandi. Ovchilik jamoada yordamchi xoʻjalik sifatida davom etdi. Bu davr hunarmandchiligining kulolchilik va tuqimachilik sohalari, metallurgyaning eng ibtidoiy formadagi koʻrinishlari rivojlandi. Eneolit davrining soʻnggi etapida, urugʻdoshlik jamoasida erkaklarning roli sezila boshlasada, lekni hali jamiyatni boshqarish ishi onalar qoʻlida edi. SHuning uchun jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida matriarxat davri hukmron edi.

Ibtidoiy urugʻdoshlik jamoalarining shu davrga oid baʼzi bir qishloqlari Zarafshon daryosining quyi oqimida, Amudaryo deltasida qisqa muddatli makonlar tipida uchratiladi. Ammo ular Janubiy Turkmaniston eneolit davri qishloqlari singari oʻsha jamoa ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti haqida toʻla-toʻkis taassurot bera olmas edilar. Oʻrta Osiyoda olib borilgan arxeologik dala tadqiqot ishlarining natijalariga qaraganda, bu zonalarda ibtidoiy dehqon jamoalari metall bilan keng koʻlamda bronza davrida tanishadilar.

Qadimgi metallurklar maʼlum davrdan soʻng qalayni misga qorishtirib, bronza olishni kashf etdilar. Oʻrta Osiyoda bronza mil. avv. II ming yillikning boshlaridan maʼlum boʻlib, ibtidoiy davr taraqqiyotining soʻnggi bosqichi hisoblanadi. Metall va metallurgiyaning kashf qilinishi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida tub oʻzgarishga olib keldi. Bu hdisa sivilizatsiyaning muhim omili sifatida urbanizasiya jarayonining tashkil topishiga zamin yaratdi. SHu oʻrinda qayd etish lozimki, oʻtgan asr 50-yillarining boshlarida B.A.Kuftin Namozgohtepada qazishmalar oʻtkazib, Janubiy Turkmaniston oʻtroq dehqon jamoalari tarixining yangi xranologik sistemasini taqdim qildi. SHu davrga

qadar esa G.SHmidt davriy sistemasidan arxeologlar rosa 50 yil foydalanishib kelishdilar. SHuni qayd etish lozimki, 1904 yilda amerialik R.Pompelli Janubiy Turkmanistonga ekspeditsiya uyushtirdi, uning tarkibida nemis arxeologi G.SHmidt qatnashib, bu ekspeditsiya Anavtepani qazib o'rganib, bu erdagi madaniy taraqqiyotni 4 ta xranologik bosqichga bo'lib, ularni Anov I, II, III va IV deb atadi.

B.A.Kuftin esa Namozgohtepani o'rganib, qadimgi dehqon jamoalarining eneolit va bronza davri tarixini 6 bosqichga bo'lib, u bu bosqichlarni Namozgoh I, II, III, IV, V, VI deb atadi.¹³ Keyinroq bu yodgorlikda o'rganish ishlarini V.M.Masson davom ettirib, uning xranologik davriy sistemasiga tub o'zgarishlar kiritolmasa-da, usha 6 bosqichning har birini ikkitadan bosqichga bo'lib o'rganish mumkinligini isbotlab berdi.¹⁴ G.SHmidt va B.A.Kuftin xranologik davriy sistemasini bir-biri bilan solishtirilganda Anov I ning «A» fazasi neolitga tegishli bo'lib, Anov I «B» esa Namozgoh I ga tengdir. SHuningdek, Anov II Namozgoh II ga borabar; Anov III Namozgoh III, IV, V va VI ga tengdir. Anov IV ilk temir davriga taalluqli bo'lib, O'rta Osiyo ibtidoiy jamoa tuzumi tarixining Namozgoh II-III bosqichlari Janubiy Turkmanistonda eneolit asri hisoblanai. B.A.Kuftin xronologik davriy sistemasidagi Namozgoh IV, V, VI etaplari Janubiy Turkmanistonda jez davri hisobalanadi. Namozgoh IV kompleksi ilk bronza, Namozgoh V rivojlangan bronza, Namozgoh VI esa Namozgoh madaniyatining so'nggi bosqichi hisoblanadi. Namozgoh IV bosqichining xronologik doirasi miloddan avvlgi III minginchi yillikning o'rtalari va uning ikkinchi yarmi bilan belgilanadi. Namozgoh V bosqichi esa milodiy eradan avvalgi III minginchi yillikning oxiri va II minginchi yillikning birinchi choragiga doirdir. Namozgoh VI bosqichi mil. avv. II minginchi yillikning ikkinchi choragi va uning ikkinchi yarmiga tegishli hisoblanadi.¹⁵

¹³ Куфтин Б.А. Полевой отчёт о работе XIX отряда ЮТАКЭ по изучению культуры первобытных оседлоземледельческих поселений эпохи меди и бронзы в 1952 г. // Тр. ЮТАКЭ, Т. VII. -Ашхабад, 1956. стр - 45.

¹⁴ Массон В.М. Памятники культуры архаического Дахистана в юго-западной Туркмении // Тр. ЮТАКЭ, Т. VII. -Ашхабад, 1956. стр – 60.

¹⁵ Аскарлов А.А., Жўракулов М.Ж. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё // -Самарканд, 1984. 50 – бет.

Ishimizda davriy sistemalar yuzasidan chalkashliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shuni ham qayd etib o‘tish lozimki, Janubiy Turkmanistonning dehqon jamoalari tarixida V.M.Massonning fikricha, eneolit davri mil. avv. V minginchi yillikning oxiridan boshlanib, u to III minginchi yillikning birinchi choragigacha davom etdi. SHuningdek, Namozgoh I ilk eneolit, Namozgoh II o‘rta eneolit va Namozgoh III esa so‘nggi eneolit hisoblanadi. Eneolit davrida sug‘orma dehqonchilik va xonaki chorvachilik ibtidoiy xo‘jalikning asosini tashkil etgan.

Jez davridan keyingi taraqqiyot ilk temir davri bilan xarakterlangan holda uning xronologik davriy sistemasi dastlab YOztepa yodgorligi manbalari asosida ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra YOz I mil. avv. 900-800 yillar bo‘lib, odamzod dastlabki temir buyumlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, YOz II mil. avv. 700-600 yillar, o‘rta rivojlanishi va YOz III 500-400 yillar bilan belgilanib, uning rivojlangan davri hisoblanadi, deb belgilangan.

Bu xronologik davriy sistemalarni alohida eslatishimizdan maqsad – Janubiy O‘rta Osiyoda rivojlangan madaniyat va ilk shaharlarning tashkil topish evolyusiyasini belgilashda shu sistemadan foydalandik.

Demak, yuqorida zikr etilgan taraqqiyot bosqichlarining barcha davrlarida inson jamoalari sayyoh ovchilik turmush tarzidan qo‘nim yashashga intilganlar va bu hodisa evolyusion yo‘l bilan tarixiy dialektika asosida dinamik tarzda sodir bo‘lib, odamzod yuksak madaniyatga, xususan, shaharlashish sivilizatsiyasiga erishgan. Kishilik jamiyatining iqtisodiy-xo‘jalik tizimida keskin o‘zgarishlarga olib kelgan voqelik – bu metallning kashf etilishidir. Metallning mehnat qurollari yasash uchun kashf qilinishi ibtidoiy jamoa xo‘jaligida ro‘y bergan buyuk o‘zgarishlardan hisoblanadi. Dastlabki mehnat qurollari misdan yasalar edi, ammo misning yumshoq va mo‘rtligi tufayli mehnat qurollarining aksariyati toshdan ishlanardi. SHuning uchun ham bu davr eneolit (mis-tosh) davri deb tarixga kirdi. Eneolit davri er kurrasining barcha mintaqalarida bir vaqtda boshlanmay, balki har bir hududning ekologik va tabiiy imkoniyatlariga qarab, har xil vaqtda boshlangan. Afrika va Osiyoning qadimgi hududlarida ibtidoiy jamoalar metall bilan ancha avvalroq, boshqa mintaqalarda esa birmuncha keyinroq tanishdilar. O‘rta Osiyo

sharoitida metall miloddan avvalgi IV minginchi yillikning boshlaridan, Janubiy Turkmanistondagi Namozgoh I madaniyati davridan ma'lum. O'rta Osiyoning shimoliy tomonlarida esa bu vaqtda neolit davri – kaltaminorliklar madaniyati gullamoqda edi. Kaltaminor merosxo'rlari metall bilan faqat miloddan avvalgi III minginchi yillikning oxirlaridagina tanishdilar.

Qadimgi metallurklar muayyan davrdan so'ng qalayni misga qorishtirib, bronza olishni kashf qildilar. Bronza egiluvchan va mustahkam metall edi. Bronzaning bu xususiyatlari qadimgi metallurklar diqqatini o'ziga jalb qilib, endi bobokalonlarimiz o'z mehnat qurollarini asosan bronzadan yasaydigan bo'ldilar. Bu hodisa tez fursatda takomillashib, qisqa davr ichida bronza ibtidoiy xo'jalikning turli sohalariga kirib bordi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Bronza tosh asriga nisbatan juda qisqa davrni o'z ichiga oladi. Uning taxminiy xronologik chegarasi mil. avv. III minginchi yillikning boshlari – I minginchi yillikning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Birinchi marta bronza miloddan avvalgi III minginchi yillikda Old Osiyo va Hindistonda kashf etildi. O'rta Osiyoda esa mil. avv. II minginchi yillikning boshlaridan ma'lum.¹⁶

Bronzaning kashf etilishi bilan mehnat qurollarining turi ko'paydi, mehnat unumdorligi oshdi, harbiy qurollarning xilma-xilligi va jangavorligi ortdi, bronzadan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari paydo bo'ldi. Ammo mehnat qurollari ishlab chiqarish uchun bironza nodir va kamchil metall bo'lib qolaverdi. SHuning uchun ham mehnat qurollarini tayyorlash uchun avvalgidek tosh va yog'ochlardan keng foydalanildi. Bronza faqat temirning kashf qilinishi va xo'jalikda foydalanishga kirishilishi tufayli turmushdan qisman bo'lsa-da, siqib chiqarildi.

Bronzaning kashf qilinishi xo'jalikning butun taraqqiyotini larzaga keltirdi va mehnat unumdorligi jiddiy oshdi. Undan nafaqat mehnat qurollari, shuningdek, turli bezaklar, uy-xo'jalik buyumlari, harbiy qurol-aslahalar yasaydigan maxsus temirchilik, zargarlik ustaxonalari vujudga keldi.

¹⁶ Асқаров А., Жўрақулов М. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё // –Самарқанд, 1984, 18, 136-137 б.

Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi tufayli muzofotlararo ayrabosh ancha kuchaydi, madaniy viloyatlarni iqtisodiy jihatdan bogʻlab turuvchi tabiiy aloqa yoʻllari, transport vositalari paydo boʻldi. Quruqlikdagi transport sifatida hayvon kuchidan foydalanish boshlandi. Hayvonlar qoʻshilgan gʻildirakli aravalar vujudga keldi. Demak, metallning kashf etilishi ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot jarayoni ilk shaharsozlik – urbonik sivilizatsiyaning vujudga kelishiga muayyan darajada zamin yaratdi.

Arxeolog olimlarimizning Oʻrta Osiyo hududlarida olib borgan ilmiy ishlari shuni koʻrsatdiki, bronza davrida ovchilik va termachilik ijtimoiy va iqtisodiy hayotda oʻzining dastlabki rolini yoʻqotib, aholining asosiy yashash manbai chorvachilik va dehqonchilik boʻlib qoldi.

Oʻrta Osiyoda bronza davri ibtidoiy jamoa xoʻjaligi ikki mintaqaga boʻylab rivojlanishda davom etdi. Uning janubiy-sharqiy va markaziy tumanlarida, jumladan, Janubiy Surxon vohasida va Zarafshon vohasida mil. avv. II minginchi yillardayoq sugʻorma dehqonchilik ibtidoiy bronza davri jamoasi iqtisodining asosini tashkil etardi. Fargʻona vodiysining shimoliy-sharqiy tumanlarida, Toshkent vohasining daryo havzalarida, Qarshi vohasida oʻtroq dehqonchilik xoʻjaliklari bronza davrining soʻnggi bosqichlarida, mil. avv. I minginchi yillikning boshlarida tashkil topdi. Bu erlar qadimgi chorvador qabilalarning doimiy makoni boʻlib qoldi. Dehqonchilik esa bu hududlarda faqat daryo etaklarida, maxsus sugʻorishni talab etmaydigan pastqam, zaxkash, botqoq joylarda, limanlarda olib borilar edi. Liman dehqonchiligi uchun, ayniqsa, Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryo etaklari, ularning delta irmoqlari qulay boʻlgan. Bronza davrining oxirlariga kelganda bu muzofotlarda ham kichik-kichik dehqonchilik vohalari tashkil topa boshlaydi. Chorvador qabilalarning oʻtroqlashuvi kuchayadi va ularda ham keyinroq sugʻorma dehqonchilik vujudga keladi.

Oʻrta Osiyo eneolit va bronza davri oʻzining bir qator oʻziga xos xususiyatlari bilan neolit davridan tubdan farq qilardi. Masalan, bu davrda birinchi

navbatda sug'orma dehqonchilik bazasida qad ko'targan doimiy qishloqlarning ko'payishi, binokorlikning rivojlanishi, ularda yashayotgan aholi sonining tobora zichlashib borishi va yangi erlarni jadal o'zlashtirish jarayonining kuchayishi kuzatiladi. Yangi erlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq holda qanchadan-qancha yirik qishloq tipidagi madaniyat o'choqlari vujudga keldi, ibtidoiy hunarmandchilik xo'jaligining turli sohalarida yangidan-yangi ixtirolar qilindi. Masalan, bronza davrida metallurgiya hunarmandchiligi, zargarlik, kulolchilikda mexanik yo'l bilan aylantiriladigan charxdan foydalanishga o'tish singari yangiliklar urug'doshlik jamoasining madaniy xo'jalik sohasidagi yirik kashfiyotlardan hisoblanadi.

Olimlarning tadqiqotlari shu masalani oydinlashtirdiki, O'rta Osiyoning janubiy dehqon jamoalari bilan shimolda yashovchi chorvador qabilalari o'rtasida o'zaro iqtisodiy, madaniy va qon-qardoshlik munosabatlari keng rivojlanib, birining madaniy-xo'jalik yutuq'idan ikkinchisi foydalangan. Bu ikki mintaqada o'rtasidagi aloqalar va etnik munosabatlarning davom etishi natijasida ibtidoiy jamoa ekonomikasining asosini tashkil etgan chorvachilik va dehqonchilik xo'jaligi va ular doirasida shakllanib borayotgan hunarmandchilik yanada rivoj topdi. Har ikki mintaqada aholisining madaniy-xo'jalik yutuqlari o'z navbatida qo'shni qabilalar madaniyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazib borgan. Shu bilan birga, ular o'zlarining xo'jalik va madaniy yutuqlaridan bahramand bo'lib bordilar.¹⁷

Arxeolog olimlarning xulosalariga qaraganda, bronza davrida qabilalararo munosabatlar asosan «tinch yo'l» bilan davom etgan. Ammo chorvadorlarning dehqonchilik tumanlariga «zo'rlik bilan» kirib borishi ham sodir bo'lib turgan. Masalan, mil. avv. II minginchi yillarning o'rtalarida Qozog'iston hududlarida yashovchi «Andronova madaniyati» merosxo'rlari O'rta Osiyoning avval shimoliy tumanlariga, so'ng esa uning to'janubiy chegaralarigacha – eng qadimgi dehqonchilik markazlarigacha kirib bordilar. Andronova chorvadorlarining sopol idishlari, jezdan yasalgan ba'zi bir taqinchoq va mehnat

¹⁷ Жўракулов М.Ж. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси // –Тошкент, 1984, 139-б.

qurollari Murg‘ob vohasi, SHerobod cho‘li, Kopetdog‘ yonbag‘irlarida qad ko‘targan qadimgi dehqonchilik qishloqlarida hamda Zarafshon vodiysidagi Urgut tog‘i Mo‘minobodda o‘rganilgan qabrlarda va yodgorliklarida uchraydi.

Miloddan avvalgi II minginchi yillik davomida, ayniqsa, uning oxirgi choragida cho‘l va dashtlarda yashovchi chorvadorlarning janubiy sarhadlarga tomon yurishi jadallashadi. Natijada O‘rta Osiyo aholisi etnik tarkibida turli antropologik tip vakillarining aralashish jarayoni tezlashadi.¹⁸

Bronza davrining so‘nggi bosqichlariga kelganda ishlab chiqarish mehnat vositalarining muayyan taraqqiyoti tufayli sun‘iy sug‘orish tizimida magistral kanallari paydo bo‘ladi, xonaki chorvachiligidan, aniqrog‘i, chorvadorlarning yarim ko‘chmanchilik turmushi tarziga o‘tish sodir bo‘ladi.

Qadimgi dehqonlar dastlab tog‘ oldi soyi va daryolarning quyi oqimlari havzalaridagi uncha katta bo‘lmagan muzofotlarni o‘zlashtirdilar. Bu manzara O‘zbekiston hududida mil. avv. II minginchi yillikning birinchi yarmida sodir bo‘ldi. O‘rta Osiyoning janubiy-g‘arbiy viloyatlarida, ya‘ni Kopetdog‘ tog‘ oldi tumanlarida esa bu hodisa ancha avval, ya‘ni neolit davrida boshlanib, eneolit davriga kelganda yanada keng ko‘lamga ega bo‘ladi.

Olimlarning ko‘p yillik tadqiqotlariga qaraganda, mil. avv. II minginchi yillikning birinchi yarmida, balki undan ham oldinroq qadimgi dehqon jamoalarining O‘rta Osiyoning janubiy-g‘arbiy mintaqalaridan sharqiy hududlar tomon yurishi kuzatilingan.

Bronza davrining boshlang‘ich davrida Murg‘ob vohasini o‘zlashtirgan qadimgi dehqonlar mil. avv. II minginchi yillikning o‘rtalariga kelib, Qadimgi Baqtriya erlarigacha borib etadi. Bu jamoalarning qishloqlari Murg‘ob vohasida, SHimoiy Afg‘oniston va Janubiy O‘zbekiston hamda Janubiy Tojikiston hududlarida qad ko‘taradi. Qishloqlar atrofida esa ekin maydonlari, dehqonchilik dalalari paydo bo‘la boshlaydi. Qadimgi dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan qabilalarning chorvador qabilalar mintaqalari chegarasiga etib borishi natijasida

ular o'rtasidagi madaniy-xo'jalik aloqalarining yanada rivojlanishiga, chorvador qabilalar muzofotlarida ham dehqonchilik madaniyati ta'sirida asta-sekin yangi dehqonchilik o'choqlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Dehqonchilik vohalari vujudga kelib, ularning markaz qishloqlari ular zamirida esa protoshaharlar tashkil topdi.

Marg'iyona – O'rta Osiyodagi katta tarixiy madaniy viloyat. Qadimda u Murg'ob daryosining o'rta oqimidagi hududlar va Marv vohasi (Turkmaniston)dan iborat bo'lgan. Marg'iyona g'arbda Parfiya, shimoli-sharqda So'g'd, SHarqda Baqtriya, Janubda Ariya bilan chegaralangan. Poytaxti Qadimgi Marv hududida joylashgan. U qadimgi forscha – Margush, «Avesto» kitobida va «Behistun» qoya tosh yodgorligida qayd etilgan.

Marg'iyona mamlakati tarixini dastlab arxeologik jihatdan o'rganish ishlari XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. O'sha yillardayoq jahon olimlari orasida ham bu mamlakat tarixi katta qiziqish uyg'otgan edi.

Marg'iyona muzofotlarini arxeologik jihatdan batafsil o'rganish ishlari o'tgan asrning 50-yillarning o'rtalaridan boshlangan edi. Bu yo'nalishda tadqiqot olib brogan taniqli olim, arxeolog V.M.Masson Marg'iyona kompleksini Namozgoh VI madaniyati tarkibidagi Murg'ob variantiga ajratgan holda, uni esa ikki, ya'ni ilk ovchin va uning so'nggi davrlariga ajratdi. Ilk Ovchin miloddan avvalgi 1600-1300 yillar va so'nggi (taxirboy) davrini esa mil. avv. 1300-100 yilliklar bilan sanalagan edi.¹⁹ V.I.Sarianidi esa ularni uch kompleksga, ya'ni kelleli (mil. avv. 1750-1500 yillar), gonur (mil. avv. 1500-1250 yillar) va to'g'aloq (mil. avv. 1250-100 yillar) bosqichlariga bo'ladi.²⁰ Ayni vaqtda Murg'ob vohasining pastki oqimi muzofotlarida 100 dan ortiq so'nggi bronza davriga mansub yodgorliklar topilib o'rganilgan bo'lib, ularni olimlar 10 ta kichik vohalarga bo'ladilar.

¹⁸ Асқаров А.А, Жўракулов М.Ж. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё // -Самарканд, 1984, 35-б.

¹⁹ Массон В.М. Древнеземледельческая..., стр - 27-28.

²⁰ Сарияниди В.И. Древности страны Маргуш // -Ашгабад: «Блим», 1990, стр - 74.

Janubiy O'rta Osiyoda, jumladan, Marg'iyona hududlarida olib borilgan ko'p yillik dala tadqiqotlar bronza davrining so'nggi bosqichlariga kelib, Marg'iyona va Baqtriya hududlariga qabilalarning ommaviy ravishda kirib kelishi va hali hech kim tomonidan o'zlashtirilmagan bo'z erlarning o'zlashtirilishi boshlanadi. Olimlarning xulosalariga qaraganda Janubiy Turkmaniston qabilalari, balki Eron tekisliklarida yashagan aholi sharqiy yo'nalish bo'ylab migrasiya yo'li bilan kirib kelishib, qisqa vaqt ichida Murg'ob daryosi havzasi, Amudaryoning o'rta oqimi tarixiy Marg'iyona va Baqtriya erlarini egallash oqibatida bu hududlarda o'nlab dehqonchilik vohalari tashkil topadi. SHu asosda o'z hajmi jihatidan yirik yodgorliklar, jumladan, Oltintepa (46 ga), Namozgohtepa (70 ga), Ulug'tepa (13 ga), Gonur 1 (20 ga), Jarqo'ton (100 ga), Dashli 3 va boshqalari vujudga keladi. Vohalarning bunday ko'pligiga qaraganda V.I.Sarianidining xulosalariga ko'ra, Namozgoh davri arafasida Janubiy Turkmaniston an'anaviy dehqonchilik vohalari Murg'ob daryosi havzasida joylashadi va shu bilan muvoziy ravishda vohalar bilan birga yirik daryolarning havzalari ham o'zlashtiriladi.

Janubiy Turkmaniston va boshqa joylardan Marg'iyona va Baqtriya hududlariga an'anaviy dehqon qabilalarning kirib kelishi, avvalambor, iqtisodiy zaruriyatdan kelib chiqqan bo'lib, yangi serhosil erlarni o'zlashtirish va jamoalarni yashash imkoniyatlari bilan ta'minlashdan iborat edi.

YUqorida zikr etilganidek, bronza davrining so'nggi bosqichlariga kelib, Marg'iyona va Baqtriya hududlariga o'zga vohalar qabilalarining kirib kelishi boshlanadi va ko'pgina yangi vohalar o'zlashtirila boshlaydi.

Bu hududlarda ilk shaharlarning tashkil topishida muhim rol o'ynagan qabilalar Murg'ob havzasida joylashib, bu davr Namozgoh V va Namozgoh VI taraqqiyot bosqichining oxirlariga to'g'ri keladi. O'sha zamonlardayoq bu jamoalar dehqonchilikka eng ma'qul serhosil va sersuv vohalarni o'zlashtirishga kirishadilar. Ayni vaqtda Murg'ob vohasida bronza davriga mansub 100 dan ortiq

yodgorliklar o'rganilgan bo'lib, ular Baqtriyadagi singari o'nlab vohalarni tashkil qiladi.²¹

Murg'ob havzasida ko'p yillar davomida tadqiqotlar olib borgan V.A.Sarianidining axborotiga ko'ra bu hududlarni o'zlashtirish tarixi mil. avv. IV ming yillikka borib taqaladi. Namozgoh V oxiri va Namozgoh VI davri arafasida esa Janubiy Turkmaniston dehqonchilik vohalaridan Murg'ob daryosi havzasiga kirib kelgan jamoalar, voqa irrigatsiya tizimidan daryolarning keng maydonlarini o'zlashtiradilar.

Ko'p yillar tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, har bir vohaning «poytaxt» sifatidagi yirik yodgorligi bo'lib, uning atrofida esa kichik qishloqlar joylashgan. Bunday yodgorliklarning soni har bir vohada 3 tadan 30 tagacha bo'lgan. Ana shundaylardan Gonur, To'g'aloq, Tohirboy va Ovchin vohalari bo'lib, ularning atrofida 10 tadan 30 tagacha yodgorliklar joylashgan.²²

Qadimgi Marg'iyona hududlarida Namozgoh IV-VI bosqichlarida tashkil topgan ilk shaharlar xususiyatiga ega bo'lgan yodgorliklar g'arbda Qizil Arvatdan, sharqda Tejen daryosiga qadar yastanib yotgan hududlarda joylashgan Namozgohtepa, Oltintepa, Ulug'tepa, To'g'aloq, Gonurtepa kabi ko'p qatlamli yodgorliklarda o'rganilgan.

Namozgoh V davrining yirik poytaxti darajasiga ko'tarilgan yodgorliklari Namozgohtepa bo'lib, Janubiy Turkmanistonning Kopetdog' etaklarida Lunsuy vohasida joylashgan. Maydoni 70 ga, madaniy qatlamining qalinligi joylarda 34 metrgacha boradi. Yodgorlikda 1949-1952 yillari B.A.Kaftin boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya qazishmalar olib borib, O'rta Osiyo eneolit va jez davriga oid arxeologik davriy sistemani ishlab chiqdi. 1950-yillarning o'rtalaridan boshlab yodgorlikni V.M.Masson boshchiligidagi Sankt-Petrburg arxeologlar guruhi

²¹ Массон В.М. Памятники культуры архаического Дахистана..., стр - 23-28.; Сарияниди В.И. Древности страны Маргуш // -Ашгабад: «Блим», 1990, стр - 71-71.; Удеумурадов Б.Н. К вопросу о выделении о седлых земледельцев в среднем течении Мургаба // ИАН.ТССР, СОН. №2, 1989, стр - 6.

²² Сарияниди В.И. Древности страны Маргуш // -Ашгабад: «Блим», 1990, стр - 7-58.

o'rgandi.²³ Namozgohtepa madaniy qatlamlari 6 ta xronologik bosqichlarga (Namozgoh I-VI) bo'lingan. Ulardan Namozgoh I-III eneolit davriga, Namozgoh IV-VI esa jez davriga tegishlidir. Bu yodgorlik manbalari bazasida oddiy qishloqdan yirik poytaxt darajasigacha bo'lgan evolyusion taraqqiyotni kuzatish mumkin bo'ldi. Namozgoh tepadagi 34 metrli ma'dan qatlamning 4 metr ga yaqin qatlami Namozgoh IV bosqichiga tegishlidir. Bu qatlamlar mil. avv. IV minginchi yillikdan II ming yillikning oxirlarigacha oiddir.²⁴

Tepalikda ko'p xonali binolarning qoldiqlari qazib ochilgan bo'lib, eneolit, ya'ni Namozgoh I, II, III bosqichlariga qaraganda

Namozgoh IV bosqichida binokorlikning muayyan tarzda takomillashuv dinamikasini kuzatish mumkin bo'ldi. Uylarning devorlari xom g'ishtdan terilgan bo'lib, har bir inshoot yonida esa kichik hovli borligi ma'lum bo'ldi. Xonalarning ko'pi bu davrda to'g'ri burchak shaklida qurilgan. Ular ichida supalar, o'choqlar joylashgan, devorlarida narsalar qo'yish maqsadida tokchalar o'rnatilgan.

Namozgoh IV bosqichi sopol idishlari rangli bo'lib, naqshlar orasida o'simlik va hayvon suratlari uchraydi. Namozgoh IV davrining oxirlarida kulolchilik charxi kashf qilindi. Natijada shunday o'zgarishlar yuz berdiki, oqibatda Marg'iyonaning janubiy muzofotlari o'z taraqqiyoti bilan Qadimgi SHarq madaniyatiga yaqinlashib qoldi. Sopol idishlar endilikda maxsus xumdonlarda pishiriladigan bo'ldi. Kulol charxining hunarmandchilikda joriy qilinishi sopol buyumlar ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini yaratdi. CHARxda yasalgan idishlar qo'lda tayyorlangan sopol buyumlardan jiddiy farq qilib, bu o'zgarishlar asosan dehqonchilik madaniyati uchun xarakterlidir.

Namozgoh IV davrining so'nggi bosqichida me'morchilikda monumental inshootlar qurish kuzatiladi. Namozgoh V jez davrining yuksak rivojlangan davri bo'lib, har sohada rivojlanishning yuqori darajasi kuzatiladi. Sopol ishlab chiqarish

²³ Массон В.М. Миср и анская равнина в эпоху поздней бронзы и раннего железа // ИАН ТССР, 1954, №2. Стр – 18.

²⁴ Шишкин И.Б. У стен великой Намазгаи. М.: «Наука», 1977. стр-94-95

korxonalarining mahsuloti to'la-to'kis tovar xarakterini oladi. Sopollarning mutlaq aksariyati naqshsiz holda ishlab chiqarilardi.

Bu davrga kelib me'morchilikda monumental inshootlar qurish keng tus oladi. Xullas, shu tarzda tom ma'nodagi ilk shahar shakllanadi. Namozgoh V davrida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar Namozgoh VI davrida yanada kengroq va chuqurroq davom etadi. Namozgohtepada so'nggi davr qatlamlari kam uchratilgan. Buning sababi, deb yozadi A.Asqarov, aynan shu davrdan e'tiboran «metropoliyalarda»gi shahar hayoti yangi muzofotlarga, xususan, Murg'ob vohasi va Baqtriyaga ko'chadi.²⁵

Arxeolog olimlar Namozgohtepani ilk shahar markazi sifatida e'tirof qilishadilar.²⁶ Uning atrofida joylashgan SHO'rtepa, Qo'shtepa, Taychanoqtepa, Elkantepa, Tekkemtepa singari kichik qishloqlar iqtisodiy va balki siyosiy jihatdan ham Namozgohtepaga tobe bo'lgan bo'lishi mumkin.²⁷

Xullas, Namozgohtepa tarixiy taraqqiyot pog'onalari jarayonida muayyan vohaning poytaxti, ilk shahar sifatida Janubiy O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan.

Marg'iyona arxeologiyasida Namozgoh madaniyati Qadimgi SHarq sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, bu davrda qabilalararo munosabatlar doirasi va chegarasi kengayadi. Marg'iyonaning qadimgi dehqonlari janubda SHimoliy-SHarqiy Eron qabilalari bilan (Hisor, SHoxtepa, Tyuringtepa va boshqalar), shimolda esa O'rta Osiyoning neolit davri Kaltaminor madaniyati jamoalari bilan yaqin aloqada bo'ldilar. Dehqonchilik, xonaki chorvachilik xo'jaligi, hunarmandchilikning turli sohalari, jumladan, kulolchilik, metallurgiya, to'qimachilik, qurilish, zargarlik kabi sohalari keng rivojlandi. Namozgoh V davrining so'nggi bosqichida kulolchilik charxi kashf etildi. Natijada sopol buyumlar ishlab chiqarish sohasida shunday sezilarli o'zgarishlar yuz berdiki,

²⁵ Аскарлов А., Жўрақулов М. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё // –Самарқанд, 1984, 40-41 бб.

²⁶ Массон В.М. На пороге раннеклассового общества. Оазисы юга Средней Азии в первой трети I тыс. до н. э. –Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. –М.-Л., 1966.стр – 55.

²⁷ Аскарлов А., Ширинов Т. Ранняя городская культура..., 1993. стр – 78.

oqibatda O'rtta Osiyoning janubiy tumanlari o'z taraqqiyoti bilan qadigi SHarq madaniyatiga yaqinlashib qoldi.²⁸

O'rtta Osiyoning janubidagi jez davri ilk shaharlaridan yana biri Oltintepa hisoblanadi. Yodgorlik Meana qishlog'i yaqinida joylashgan. Umumiy maydoni 60 ga, yodgorlik shimoliy-sharqdan janubiy-g'arb tomonga cho'zilib yotgan yirik tepalikdan iborat bo'lib, uning balandlik joyi 20 metrdan iborat. Yodgorlikni 1929 yilda A.A.Semenov topgan, 1930 yillarda A.A.Marushenko, 1949 yildan M.E.Masson va 50-yillardan boshlab esa V.M.Masson tomonidan har tomonlama keng ko'lamda qazib o'rganilgan. Qazish ishlari davomida Oltintepaning qadimgi dehqonchilik madaniyatiga oid yodgorlik ekanligi ma'lum bo'ldi .

Bu yodgorlik ibtidoiy jamoa tuzumi zaminida yuz bergan qator ijtimoiy, iqtisodiy va mafkura masalalariga doir yangiliklar bilan qadimgi Marg'iyona va Baqtriya xalqlari tarixini boyitdi. Bu davrga oid mudofaa devorlari, monumental ibodatxona qoldiqlari, hunarmandchilik, uy-joy xo'jalik komplekslari va boshqalar o'rganildi.

V.M.Massonning xabar berishicha, bu yodgorlikda Namozgoh IV davri qatlami 4 metrgacha qalinlikda uchraydi. Oltintepada Namozgoh IV davriga oid 60 metr masofada mudofaa devorlari, ko'pxonali xo'jalik komplekslari o'rganilgan. Oltintepaning «devorlar tepaligi» deb atalgan qismidan diniy-e'tiqod markazi – ibodatxona ochildi. Uning tashqi atrofi 5 metr balandlikdagi monumental mudofaa devori bilan o'rab olingan. SHuningdek, bu yodgorlikda ko'p xonali uylar qazib tekshirildi. Olimlar fikricha, bunday uylarda katta patriarxal oila jamoalari yashagan. Uylarning maydonlari keng, 50-70-100 m² keladi. Ular to'g'ri burchakli uy-joy va xo'jalik xonalaridan iboratdir. Turar-joylarning markaziy yoki burchak qismida paxsadan o'choq qurilgan .

Namozgoh V bosqichida hunarmandchilikning metallurgiya sohasi keng rivojlandi. Mehnat qurollari endilikda asosan bronzadan yasaladigan bo'ldi. Bronzadan randalash, o'rish, parmalash qurollari yasaldi. YAsalgan bronza pichoqlariga va boshqa buyumlarga turli shakldagi urug' jamoasi muhrlarini solish

²⁸ Аскарлов А., Жўрақулов М. Энеолит ва бронза..., 150-151 б.

keng tus oladi. Bu «muhrlar» «totem» belgisi sifatida, ayniqsa, ayollar qabrida ko‘p uchraydi. Bu manzara, albatta, hali Namozgoh V davrida ham onalar mavqeinin yuqoriligidan dalolatdir.

Muhim kashfiyotlardan biri – Oltintepadan topilgan ibodatxona edi. Bu inshoot paxsa va xom g‘ishtdan ishlangan zinapoyali ibodatxona bo‘lib, uning nomi Zikkurat deb ataladi. Aslida Zikkuratlar Ikkidaryo oralig‘ida Uruk davrida paydo bo‘lgan. Oltintepa inshooti katta to‘rt zinapoyali inshootga o‘xshaydi. Uning poydevori 55 metr, balandligi 12 metrdan iborat. Zikkuratning yonida bir necha xonalar ochilgan bo‘lib, ular Zikkurat xizmatkorlariga tegishli bo‘lsa kerak. Keng xonalarning birida muqaddas o‘choq bo‘lib, unda muqaddas olov yonib turgan. Yana bir xonaning tagidan qabrlar topilgan. Arxeologlar fikricha, qabrlarga zikkurat – ibodatxonasining xizmatkorlari dafn qilingan. Namozgoh V bosqichida avvalgidek turli xil qimmatbaho toshlardan marjonlar, tumorlar yasash, hayvonlarning terrakotadan haykallarini yasash davom etgan. Bu davrda hayvondan transport vositasi sifatida keng foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Hayvon qo‘shilgan g‘ildirakli aravalar paydo bo‘ladi. Oltintepaliklarda ho‘kizga, bo‘riga topinish alohida o‘rin oladi.²⁹ Arxeologik topilmalar tarkibida eng muhimlari oltindan yasalgan buqa va bo‘ri boshchalaridan iborat haykalchalardir. Oltin boshli buqa haykali kohin qabridan topilgan. Uning ko‘zi lojuvard toshidan ishlangan bo‘lib, peshanasiga esa yarim oy shaklida feruza toshi qadalgan. Xuddi shunday bo‘ri boshi haykali ham topilgan. Bunday qiyofadagi haykalchalar Ikkidaryo oralig‘i Ur shahrida ko‘plab topilgan bo‘lib, bu topilmalar mil. avv. 2600-2500 yillar bilan sanalangan. Demak, Oltintepa topilmalari Qadimgi SHumer san’ati va haykaltaroshligining madaniy ta’siridan dalolat beradi. Oltintepada Namozgoh V bosqichida ochilgan ibodatxona esa ilk shaharlarga xosdir. V.M.Masson Oltintepa V ning yuqori qatlamini o‘rganib muhim xulosalarga keldi. SHulardan Oltintepa Namozgoh V, ya’ni bronza davrining rivojlangan bosqichiga kelib, bu erda ilk shahar madaniyatining shakllanganligi haqidagi xulosa edi. Ilk shahar maydoni

²⁹ Массон В.М. Альтын-депе (исследов. 1965-1978) // Труды ЮТАКЭ, Т. XVIII. –Л.: «Наука», 1981, стр - 30-35.

qator turar-joy mahallalariga bo‘linib, ular mahallalararo tor ko‘chalar bilan birlashtirilgan. Bu ko‘chalarning kengligi 1,5-2 metr. Bundan tashqari shaharga kirish darvozalari va ulardan shahar markazidagi maydonga olib boruvchi magistral ko‘chalar barpo qilinganligi ma’lum bo‘ldi. Magistral ko‘chalarning kengligi esa 4-5 metr bo‘lib, bularda g‘ildirakli aravalar bemalol yurishi mumkin edi. SHunday qilib, Oltintepa qishlog‘i eneolit (Namozgoh I) va ilk bronza (Namozgoh IV) davridan boshlab, mudofaa devori bilan o‘rab olina boshlangan edi. O‘zining kelib chiqishi bilan SHumer ibodatxonalarini eslatuvchi Oltintepa Zikkurati va uning yonida unga tegishli monolit ansambl kompleksning oltin boshli ho‘kiz va bo‘ri singari topilmalar bilan birga ochilishi, bu joy, albatta, qadimgi ilk shahar mafkura markazi ekanligidan dalolat beradi.

Oltintepada kuzatilgan arxeologik manzara qishloqlarning galdagi taraqqiyot qonuniyat zanjirida yangi sifat bilan bog‘liq jarayon – bu ilk shaharlarning vujudga kelishi edi. SHahar xususiyatlarini ifoda etuvchi tadqiqot va xulosalar G.Adams va G.CHayld asarlaridan ham ma’lum.

Urbanizasiya sari rivojlanish evolyusiyasi Janubiy Turkmanistonda uch taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi. Masalan, ilk dehqon makonlari kichikroq ovullardan tashkil topgan bo‘lib, ularning maydoni 1-1,5 gektardan iborat edi. Eneolit davriga kelib esa yirik aholi punktlari tashkil topadi. Ularning maydoni 10-15 gektardan iborat bo‘lgan. Bundan so‘ng o‘ziga xos vohaning markazi sifatida atrofidagi kichik qishloqlarni o‘ziga itoat qildirgan, yirik aholi punktlari paydo bo‘ladi. Janubiy Turkmanistonda shunday markaz Oltintepada namoyon bo‘ldi.³⁰ Oltintepaning ijtimoiy strukturasi o‘rganish borasida aholi yashaydigan uy-joy qurilish tuzilishi, jamoaviy dafn urf-odatlar bilan bog‘liq inventarlar, aholining oziq-ovqat iste’moli bilan bog‘liq

masalalar bo‘yicha ham boy arxeologik ma’lumotlar to‘plandi. SHahar markaziy maydonida «aristokratlar kvartali»ning ochilishi, u bilan bog‘liq bo‘lgan

³⁰ Массон В.М. Протогородская цивилизации юга Средней Азии // –СА, №3, 1967. стр – 100.

mavzoleyning, qimmatbaho ashyolarning topilishi o'sha zamon jamiyati sosial stratigrafiyasining muhim elementi edi.

V.M.Masson Oltintepa qadimgi ilk shahar qatlamlaridan Namozgoh IV va V davriga tegishli yuzdan ortiq ayol ma'budalariga chizilgan piktografik belgilarni topdi. Bu belgilar olimning fikriga qaraganda o'zining shakli, xarakteri bo'yicha xarappa va shumer hamda protoelam yozuvlaridan deyarli farq qilmaydi. Aynan shunday piktografik belgilardan 30 dan ziyodrog'i Sopollitepadan ham topilgan edi. Afsuski, bu «yozuv»lar hamon mutaxassislar tomonidan atroflicha o'rganilganicha yo'q. YOzuvning mavjudligi esa ilk shahar xususiyatini belgilovchi muhim elementlardan biridir.

Xususiy boylikning to'plana borishi tufayli savdoning rivojlanishi, u bilan bog'liq talonchilik, o'sha zamonlarga xos bo'lgan qaroqchilik, yangi hosildor erlarni egallash uchun intilish, qishloqlarni talash singari alomatlar fartifikasiyaning jadal rivojlanishiga omil bo'ldi.

Fikrimizning xulosa qismida shuni aytib o'tish lozimki, V.M.Masson Oltintepani ilk shaharmi yoki yo'q, buni oydinlashtirmaydi.³¹ A.Asqarovning fikricha, Oltintepa bronza davri jamiyatida shahar-davlat bo'sag'asida turgan ilk shahar, ibodatxona – shahar sifatida tasavvur qilish mumkin deydi. Poytaxt yodgorlik – Oltintepada Namozgoh V davridan so'ng shahar hayoti davom etmadi. Aholi shaharni asta-sekin tashlab, Murg'ob vodiysi tomon ko'chib ketganlar. Bunga dehqonchilik xo'jaligini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan suv zahirasining Oltintepa hududida juda chegarali bo'lishi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.³² V.M.Masson Oltintepani o'rganish ishlariga qunt bilan qarab, alohida e'tibor berdi. Natijada bu yodgorlik ibtidoiy jamoa tuzumi zaminida yuz bergan qator ijtimoiy, iqtisodiy va ideologiya masalalariga doir yangiliklar bilan Qadimgi Marg'iyona va Baqtriya xalqlari tarixini boyitdi. Bu davrga oid mudofaa devorlari, monumental ibodatxona qoldiqlari, hunarmandchilik, uy-joy xo'jalik komplekslari va boshqalar o'rganildi. Ma'lum bo'ldiki, Oltintepaning 3 metr qalinlikdagi yuqori qatlami

³¹ Массон В.М. Альтын-депе (исследов. 1965-1978) // Труды ИУТАКЭ. –Л.: «Наука», 1981, стр - 108.

Namozgoh V davri madaniyatiga tegishli bo'lib, bu davr aholisi kulolchilik sohasida professional darajasiga ko'tarila olgan.

Namozgoh V bosqichida hunarmandchilikning metallurgiya sohasi keng rivojlandi. Mehnat qurollari endilikda asosan bronzadan yasaladigan bo'ldi. Bronzadan randalash, o'rish, parmalash qurollari yasaldi. Yasalgan bronza pichoqlariga va boshqa buyumlarga turli shakldagi urug' jamoasi muhrlarini solish keng tus oladi. Bu «muhrlar» «totem» belgisi sifatida, ayniqsa, ayollar qabrida ko'p uchraydi. Bu manzara, albatta, hali Namozgoh V davrida ham onalar mavqeinin yuqoriligidan dalolatdir.

Muhim kashfiyotlardan biri – arxeolog olimlarimizning Oltintepadan topilishi ibodatxona edi. Bu inshoot paxsa va xom g'ishtdan ishlangan zinapoyali ibodatxona bo'lib, uning nomi Zikkurat deb ataladi. Aslida Zikkuratlar Ikkidaryo oralig'ida Uruk davrida paydo bo'lgan. Oltintepa inshooti katta to'rt zinapoyali inshootga o'xshaydi. Uning poydevori 55 metr, balandligi 12 metrdan iborat. Zikkuratning yonida bir necha xonalar ochilgan bo'lib, ular Zikkurat xizmatkorlariga tegishli bo'lsa kerak. Keng xonalarning birida muqaddas o'choq bo'lib, unda muqaddas olov yonib turgan. Yana bir xonaning tagidan qabrlar topilgan.

Arxeologlar fikricha, qabrlarga zikkurat – ibodatxonaning xizmatkorlari dafn qilingan. Namozgoh V bosqichida avvalgidek turli xil qimmatbaho toshlardan munchoqlar, tumorlar yasash, hayvonlarning terrakotadan haykallarini yasash davom etgan. Bu davrda hayvondan transport vositasi sifatida keng foydalanish yo'lga qo'yilgan. Hayvon qo'shilgan g'ildirakli aravalar paydo bo'ladi. Oltintepaliklarda ho'kizga, bo'riga topinish alohida o'rin oladi. Arxeologik topilmalar tarkibida eng muhimlari oltindan yasalgan buqa va bo'ri boshchalaridan iborat haykalchalardir. Oltin boshli buqa haykali kohin qabridan topilgan. Uning ko'zi lojuvard toshidan ishlangan bo'lib, peshanasiga esa yarim oy shaklida feruza toshi qadalgan. Xuddi shunday bo'ri boshi haykali ham topilgan. Bunday

³² Асқаров А.А., Жўрақулов М.Ж. Энеолит ва бронза., 33-б.

qiyofadagi haykalchalar Ikkidaryo oralig‘i Ur shahrida ko‘plab topilgan bo‘lib, bu topilmalar mil. avv. 2600-2500 yillar bilan sanalangan. Demak, Oltintepa topilmalari Qadimgi SHumer san‘ati va haykaltaroshligining madaniy ta‘siridan dalolat beradi. Oltintepada Namozgoh V bosqichida ochilgan ibodatxona esa ilk shaharlarga xosdir. V.M.Masson Oltintepa V ning yuqori qatlamini qunt bilan o‘rgandi va muhim xulosalarga keldi. SHulardan eng muhimi, Oltintepa Namozgoh V, ya‘ni bronza davrining rivojlangan bosqichiga kelib, bu erda ilk shahar madaniyatining shakllanganligi haqidagi xulosa edi. Namozgoh V davrida Oltintepaning mudofaa devori ikkita qurilishdan iborat ekanligi aniqlandi. SHulardan biri Namozgoh V bosqichining ilk fazasida, ikkinchisida esa Oltintepa ilk shahar madaniyati shakllanib bo‘lgan, o‘rta fazada bunyod etilganligi aniqlandi. İlk shahar maydoni qator turar-joy mahallalariga bo‘linib, ular mahallalararo tor ko‘chalar bilan birlashtirilgan. Bu ko‘chalarning kengligi 1,5-2 metr. Bundan tashqari shaharga kirish darvozalari va ulardan shahar markazidagi maydonga olib boruvchi magistral ko‘chalar barpo qilinganligi ma‘lum bo‘ldi. Magistral ko‘chalarning kengligi esa 4-5 metr bo‘lib, bularda g‘ildirakli aravalar yurishi mumkin edi. SHunday qilib, Oltintepa qishlog‘i eneolit (Namozgoh I) va ilk bronza (Namozgoh IV) davridan boshlab, mudofaa devori bilan o‘rab olina boshlangan edi.

Bronza davrida urug‘ va qabila oqsoqollari bir vaqtning o‘zida ikki hokimiyatni (ya‘ni diniy va dunyoviy) o‘z qo‘llariga olib ulgurgan edilar. Qazishma ishlari davomida mavzoley xonalaridan topilgan xilma-xil ashyoviy dalillar bundan dalolat beradi. Jumladan, mehroboxonada bo‘ri va ho‘kizning oltin boshlarining topilishi va bu obektlarning koinlar faoliyati bilan bog‘liq ekanligi to‘liq isbotlaydi. Bunday misollar Qadimgi SHarq arxeologiyasida bisyor taqdim qilingan. Arxeolog olim A.Asqarovning bergan ilmiy xulosalariga qaraganda Mesapotomiyaning Ur (mil. avv. III minginchi yillarning o‘rtalari) davrida ho‘kiz kallasini oltindan, kumushdan va bronzadan yasash keng tus olgan. Xususan, shumerliklar oy xudosi Naina – Sinni oltin boshli ho‘kiz obrazida tasvirlaganlar. Uni esa qimmatbaho toshlar bilan bezaganlar. Qadimgi Misrda ham oltin, kumush

va lojuvardga e'tiqod yuqori bo'lgan. Ulardan xudo Ra haqidagi afsonalarning birida aytilishicha, quyosh xudosi Ra bir necha ming yillar Misrda podsholik qilgan ekan. U keksaygach, suyaklari kumushga, go'shtlari oltinga, sochlari esa lojuvardga aylangan ekan. Oltindan va kumushdan ishlangan ho'kiz boshlari Qadimgi SHarq yodgorliklarida (yuqori satrlarda bu haqda gapirildi), jumladan, Mesapotomiyada, Misrda ibodatxonalar (zikkurat) bilan bog'liq bo'lgan joylarda uchraydi. Qo'shimcha yana shuni hikoya tarzida ma'lum qilamizki, shumerliklarda Ur podsholigining himoyachisi oy xudosi Naina bo'lib, unga Ur shahrida maxsus muqaddas kvartal ajratgan ekan. SHu kvartalda esa Mesapotomiya Zikkurati joylashgan. Ushbu kvartal poydevoriga qo'yilgan toshdagi yozuvda «Ushbu Etemeningur ibodatxonasi Enlilning bahodir o'g'illaridan biri, mard o'g'lon Ur podshosi – hukmdor Urnamma tomonidan qudratli osmon ho'kizi uchun qurdirilgan», degan so'zlar qayd qilingan³³

O'zining kelib chiqishi bilan SHumer ibodatxonalarini eslatuvchi Oltintepa Zikkurati va uning yonida unga tegishli monolit ansambl komplekslarining oltin boshli buqa va bo'ri singari topilmalar bilan birga ochilishi, bu joy, albatta, qadimgi ilk shahar ideologiya markazi ekanligidan dalolat beradi. Ideologiya markazining shakllanishi shahar, ya'ni urbanizatsiya sivilizatsiyasining muhim elementi hisoblanadi.

Oltintepada kuzatilgan arxeologik manzara qishloqlarning galdagi taraqqiyot qonuniyat zanjirida yangi sifat bilan bog'liq jarayon – bu ilk shaharlarning vujudga kelishi edi. Progressiv arxeolog olimlardan G.Adams va G.CHayld tomonlaridan ham shahar xususiyatlarini ifoda etuvchi tadqiqot va xulosalar fanda ma'lum. Ko'pgina tadqiqotchilar shahar sivilizatsiyasini tushunishda uchta asosiy sifat belgisi mavjud bo'lishini e'tirof qilishadilar. Bulardan, ya'ni qishloq aholisining 5 mingdan oshiq bo'lishi, shu bilan birga, yozuv va monumental sig'inish binolarining taqdim qilinishi bilan bog'laydilar. Ikkinchi taraqqiyot bosqichi 5 mingdan oshiq aholiga ega markazlar bo'lib, bunda diniy va dunyoviy monumental

³³ Аскарлов А.А., Жўракулов М. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё // Самарқанд, 1984. 155-б.

arxitekturasi, hunarmandchilikning ishlab chiqarish markazi namoyon bo'lsa, bu ham ilk shahar sivilizatsiyasining muhim elementi hisoblanadi. Ammo bu masalalar shaharning tashqi xususiyatlari bo'lib, uning ichki strukturasi yangi sifat bilan ifodalanadi. Endi bunda professional hunarmandchilik markazi, savdo va avvallariga qaraganda shahar maydonining tobora kengayib borishi, jamoalar differensiyasi, «oshkoralik binosi», shaharning mustahkam qalin devorlar bilan aylantirib olinishi, monumental arxitektura singari sifat belgilari namoyon bo'lishi lozim. Masalan, ilk dehqon qishloqlari kichikroq ovullardan tashkil topgan bo'lib, ularning maydoni 1-1,5 gektardan iborat. Eneolit davriga kelib esa yirik qishloqlar tashkil topadi. Ularning maydoni 10-15 gektardan iborat bo'lgan. Bundan so'ng o'ziga xos super qishloqlar paydo bo'lib, bunday qishloqlar ma'lum vohaning markazi sifatida atrofidagi kichik qishloqlarni o'ziga itoat qildirib, markaz sifatida ular muhim rol o'ynagan. Janubiy Turkmanistonda shunday markaz Oltintepada namoyon bo'ldi. Agar biz Oltintepaning uzoq yillar davomida emirilib ketgan chekka qismlarini inobatga oladigan bo'lsak, unda yodgorlikning maydoni 46 ga ni tashkil qilib, aholisi soni 5 mingdan kam bo'lmagan. Biz bu yodgorlik zaminida ochilib o'rganilgan va ilk shahar xususiyatlaridan dalolat beruvchi sifat elementlari haqida so'z yuritgan edik. Oltintepada qunt bilan bajarilgan tekshirishlar natijasida uning ijtimoiy strukturasi ishlab chiqishga erishildi. Bu masalani oydinlashtirish maqsadida, avvalo aholi yashaydigan uy-joy qurilish strukturasi, kollektiv dafn urf-odatlari bilan bog'liq inventarlar, aholining oziq-ovqat iste'moli bilan bog'liq masalalar bo'yicha ham boy arxeologik ma'lumotlar to'plandi. Ana shu ma'lumotlar asosida V.M.Masson Oltintepa aholisini uch guruhga bo'ladi. Birinchi guruh aholisi maydoni keng, ichki qismi ham did bilan jihozlangan rejali uylarda yashagan. SHu bilan birga, ular keng ko'lamdagi hovlilarga ham ega bo'lib, unga V.M.Masson «dohiyalar uyi» deb nom beradi. Bu toifadagi aholi oziq-ovqat uchun uy hayvonlarini, ko'pincha qo'y go'shtini iste'mol qilgan. Bunday uylarning yonginasida dafn xilxonasi joylashgan bo'lib, u odatda turli-tuman inventarlarga boy, masalan, munchoqlar bilan bezatilgan ayollar, belbog'lar, muhrlar, haykalchalar topilgan.

Aholining ikkinchi guruhi, xo‘jalik hovlisi, oshxonasi bor, nisbatan kichik uylarda yashagan va bu uylar birinchi guruh aholilarinikidek atroflari mustahkamlanmagan holda bo‘lib, asosiy kvartalning bir qismini tashkil qilgan, tor ko‘chalari bilan birlashtirilgan. Bu guruh aholi ov mahsuloti va ko‘pincha uy hayvoni echki go‘шти bilan ovqatlanagan. Bu erdagi kollektiv dafn mavzoleyi birinchi guruhnikidan kam farq qiladi.

Oltintepaning ikkinchi qatlami davrida yashagan aholi har holda o‘ziga to‘q shaharliklardan iborat bo‘lib, balki suruv moliga va hosildor er bo‘limiga ega bo‘lganlar. Ikkala guruh aholisiga taalluqli xilxonalardan topilgan buyumlar bir-biridan uncha farq qilmaydi. Bu manzara hali bu vaqtda sinfiy jamiyat darajasiga xos mulkiy tabaqalanishning hamon o‘zligidan dalolat beradi. Uchinchi guruh aholi ko‘p xonali uy massivlarida «hunarmandlar tepaligi»dan iborat bo‘lib, umumiy oshxona va hovliga ega bo‘lganlar. V.M.Massonning kuzatishlariga qaraganda, uylarning rejalashtirilishi katta oilalardan iborat bo‘lgan so‘nggi eneolit davri an‘analarini davomchisi jamoalaridan iborat edi. Aynan shunday manzara Geoksyur va Qoratepada kuzatilgan. SHuning bilan bir vaqtda kollektiv dafnlar nihoyatda qashshoq, taqinchoqlar, muhrlar va haykalchalar bu erda topilmagan. Osteologik topilmalar haqida so‘z yuritsak, suyak qoldiqlarining yarmidan ko‘prog‘ini yovvoyi hayvonlar – qulon, burama shoxli echki va jayronlardan iborat edi. Bu manzara, hali bu jamoalarning yirik shoxli qoramol suruvlariga ega emasligi va balki uni hali, umuman bilmaganlar va o‘z oziq-ovqat zaruriyatini qisman ovchilik tufayli qondirgan. SHunday qilib, Oltintepa nafaqat kichik, shuningdek, katta oila jamoalarini birlashtirgan bir necha ming aholidan iborat markaz edi. SHuningdek, u murakkab ichki strukturaga ega, doimiy rivojlanishda, doimiy taraqqiyot sari sistemalashtirishga erishgan iqtisodiy funksiyani amalga oshirgan etakchi markazlardan ham edi. Bu omillar, ya’ni makrostrukturalarning rivoji bilan bog‘liq yangi o‘zgarishlar nafaqat son jihatidan, balki sifat jihatdan dinamik tarzda rivojlanib, bu elementlar jamoada ilk sinfiy jamiyatni shakllantira borib, shahar sivilizatsiyasini namoyon qilardi. YUqorida bildirilgan xususiyatlar,

odatda kichik qishloqlardan yirik aholi punktlariga aylangan va muayyan o'z an'analarga ega bo'lgan yangi davr taraqqiyot mahsuli ham edi.³⁴

O'rta Osiyoning Oltintepasi Qadimgi SHarq shaharlarining shakllanishiga doir birgina misoldir. Ayni vaqtda fan yutuqlariga nazar solsak, mil. avv. III ming yillikning ikkinchi yarmi, II ming yillikda Mesopotomiya va Hindiston oralig'idagi mintaqaga bo'ylab ikkinchi tartibdagi shahar sivilizatsiyasining yirik markazlari shakllanib, ular odatda o'z lokal xususiyatlariga ham ega edi. SHunday shaharchalardan biri Seistonda o'rganilgan SHaxri-Soxta shaharchasi bo'lib, uning egallagan maydoni 90 ga dan iborat bo'lib, bu erda monumental qurilish binolari, qulollarning kvartali qazib o'rganilgan. Bu muzofotlarda sug'orish tizimi bilan bog'liq dehqonchilikning keng rivojlanishi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning tobora o'sishining muhim omili edi. O'rta Osiyo sharoitida aholining sug'orilmaydigan, ko'p hollarda lalmi dehqonchilik mintaqalarida aholining siyrak joylashishiga sabab bo'lib, bu ahvol shahar tipidagi markazlarning vujudga kelishiga sharoit tug'dira olmadi. O'rta Osiyo arxeologiya tarixida dastlabki yozuvning paydo bo'lishini, odatda antik davri bilan bog'laydilar. Ammo aslida yozuv undan ancha qadimgi davrlarda paydo bo'lganligi fanda ma'lum. YOzuv Qadimgi SHarq mamlakatlarida mil. avv. III ming yilliklardan ma'lum. SHu davrda shumerliklar piktografik belgilar asosida yozuvni kashf qilgan edilar. Qadimgi shumer yozuvining ancha murakkab formasi mil. avv. III minginchi yillikning ikkinchi yarmida protoelam yozuvi nomi bilan Mesapotomiyada ma'lum edi. Mil. avv. III minginchi yillikning oxiri va II ming yillikning birinchi yarmida piktografik belgilar asosida Hind sivilizatsiyasining Xarrapa yozuvi paydo bo'ldi. Aynan shunday ayol ma'budalariga va idish sirtlariga chizilgan piktografik belgilar V.M.Masson tomonidan Oltintepada va A.A.Asqarov tomonidan esa Sopollitepada topilgan. Bu arxeolog olimlar eslatilgan yodgorliklarda ko'p yillar qunt bilan tadqiqot ishlari olib bordilar. V.M.Masson Oltintepada qadimgi ilk shahar xarobalaridan yuzdan ortiq ayol ma'budalariga chizilgan piktografik belgilarni

³⁴ Массон В.М. Алтын-депе (исслед. 1965-1978) // Труды ЮТАКЭ. Т. XVIII, Л.: «Наука», 1981.стр-147.

topdi. Iqtidorli arxeolog A.Asqarov esa olib borgan ko'p yillik dala tadqiqot ishlari davomida sopol idishlar sirtiga chizilgan 30 dan ziyod belgilarni topdi. Bu belgilar o'zining shakli, xarakteri bo'yicha xarappa va shumer hamda protoelam yozuvlaridan deyarli farq qilmaydi. Namozgoh IV va, ayniqsa, Namozgoh V davri madaniyati haykalchalarida bunday «yozuv»lar tez-tez uchrab turadigan bu piktografik belgilar, Oltintepada, odatda, ma'buda elkasida, ko'krak ustida uchratilgan bo'lib, aynan shunday belgilar ayol figurasi belining pastki qismida qaytariladi. Ba'zida esa bir xil belgilar haykalcha tanasi bo'ylab bir necha bor takrorlangan. SHuningdek, har xil belgili haykalchalar ham uchratilgan. Bu topilmalar V.M.Masson tomonidan 6 ta guruhga bo'linib o'rganilgan bo'lib, bu belgilarning ba'zilari Janubiy Turkmanistonning eneolit davri sopol buyumlarida rangli gul sifatida qo'llanilganligi ham ma'lum. Ammo ularning deyarli ko'pchiligi kelib chiqishi jihatidan protoshumer va protoelam yozuvlariga borib taqaladi. Darhaqiqat, arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, qadimda O'rta Osiyo jamoalari Mesapotomiya va Xarappa aholilari o'rtasida muayyan madaniy aloqalar bo'lib turganligini ko'rsatdi. Bunga Oltintepadan topilgan oltin boshli ho'kiz haykali yorqin misol bo'la oladi. V.M.Masson va A.A.Asqarovlarning ilmiy xulosasiga ko'ra, Namozgoh II madaniyati davriga kelib, qadimgi SHarq yozuvining, ayniqsa, Protoelam yozuvining bevosita ta'siri Janubiy Turkmanistonda va Janubiy O'zbekistonda ham piktografik yozuvning paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lishi mumkin. Sopollitepada topilgan belgilarga kelsak, bu «yozuv» Janubiy O'zbekistonga Janubiy Turkmanistondan Murg'ob vodiysi orqali kirib kelgan bo'lishi mumkin, degan mulohazani o'rta tashlashga asos bo'ladi. Sababi, Namozgoh V, keyinchalik Namozgoh VI taraqqiyot bosqichlarida Murg'ob aholisining bir qismi SHimoliy Baqtriya, ayni vaqtdagi Janubiy O'zbekistonga kirib kelganligi fanda isbotlangan. Oltintepada va Sopollitepada topilgan belgilarning ba'zi birlarining qo'shilish nuqtalari qo'shimcha chiziqlar bilan murakkablashtirilganlik xususiyatlarda ham aynan o'xshashliklar kuzatilinishi bunday mulohazani yuritishga asos bo'ladi.

Margʻiyonadagi yana bir muhim yodgorliklardan biri Gonur I hisoblanadi. Gonur I 20 gektar maydonga ega boʻlib, bu erda ark, yashash va hunarmandchilar kvartallari joylashgan. U Gonur vohasining markazi boʻlgan. Yodgorlik 1981-1983 yillarda V.I.Sarianidi tomonidan qazib oʻrganilgan.³⁵ Yodgorlikning atrofi taqir maydondan tashkil topgan boʻlib, tadqiqotchining fikriga qaraganda, bu atrofda kulollar kvartali va ustaxonalari joylashgan. Bu erdan 10 ta xumdon qoldiqlarining topilishi bundan guvohik beradi. Xumdonlarning ayrimlari ikki yarusli. Arkning sharqiy mavzeida maydoni 10 x 10 metr hajmdagi «qurbonlik» qilinadigan sigʻinish joyi kuzatilgan. Qishloqning qarama-qarshi mavzeida 120 x 130 metr hajmdagi toʻgʻri burchakli qalʼa topilib, uning 1,5 metr balandlikdagi devori saqlangan. Uning atrofi mudofaa devori bilan oʻrab olingan boʻlib, burchaklarida diametri 7-8 metrga ega burj qoldiqlari saqlangan.

Makonning eng baland joyida ark joylashgan boʻlib, u toʻgʻri burchakli shaklda 130 x 120 metr maydonga ega va uning joylanishi dunyoning toʻrt tomoniga qaratilgan. Ark oʻrab olingan mudofaa devorlari, burj va darvozalar bilan jihozlangan. Arkning ichki devori boʻylab toʻgʻri burchakli plyastrlar oʻrnatilgan. Ularning oʻrtacha hajmi 110 x 90 sm boʻlib, devor boʻyilib bulardan 32-34 tasi joylashtirilgan. Arkning toʻrtala tomondagi ichki devorlari ham aynan shunday plyastrlar bilan jihozlangan.

SHaharcha arki hozircha toʻla qazib tugallanmagan boʻlsa-da, topilgan ashyoviy dalillar, jumladan, monumental arxitektura inshooti bu erda eng qadimgi ibodatxona boʻlganligidan dalolat beradi.

Qazishmalar Gonurning qurilishi uch bosqichdan iborat ekanligini koʻrsatdi. Birinchi bosqichda saroy binosi, ikkinchi bosqichda oddiy jamoa aʼzolari uchun xonalar va uchinchi bosqichda esa inshoot tashlandiq holga kelgandan soʻng qabristonga aylanadi.

Topilmalar ichida sopol buyumlarning aksariyati naqshlanmagan. Sopol buyumlar sirtida odatda hayvon, koʻpincha echki suratlari va oʻsimliklar sxematik

³⁵ Сарианиди В.И. Древности страны..., стр - 14.

tarzda tasvirlangan. Masalan, ikkala orqa oyoqlarda tik turgan echkilarning tasviri Mesopotomiya yodgorliklarida ham kuzatiladi. Bundan tashqari krest (salb) shaklidagi belgilar ham uchratilgan. Yodgorlikning eng yuqori qatlamidan YAz I ning soʻnggi davriga oid qoʻlda yasalgan sopol idish parchalari topilgan. Turli tosh jinslaridan yasalgan har xil taqinchoqlar alohida oʻrinda turadi. SHuningdek, toshdan siyqalab yasalgan muhr qiziqarli boʻlib, unda nur sochgan alomat qirralar tasvirlangan. Metall topilmalardan har xil bezaklar, jumladan, bilakuzuklar, munchoqlar, igna, bigiz, juvoldiz kabilar taqdim qilingan. SHuningdek, bitta qalin xochsimon muhr arkning №4 xonasidan toilgan. SHuningdek, shu xonadan albastrdan yasalgan oyoqli kichik koʻzacha topilgan boʻlib, bu ashyo Margʻiyonadan tashqari Baqtriya va SHarqiy Eron yodgorliklariga ham xos xususiyati bilan ajralib turadi.³⁶ Metall buyumlardan, shuningdek, bargsimon paykonlar ham bor. Xullas, Gonur I maydoni 20 ga dan ziyodroq hajmdagi ilk shahar boʻlib, bu erda ark – «kreml», u bilan bogʻliq aholi yashash xonalari hamda hunarmandlar kvartallari, turli shakldagi muhrlarning topilishi bundan guvohlik berib turibdi. U Gonur vohasining markazi boʻlgan.³⁷ Bunga qoʻshimcha qilib shuni qayd qilish lozimki, Gonur I atrofida olib borilgan dala tadqiqot ishlari tufayli yana 14 ta oʻrtamiyon hajmdagi (№1-14) qishloqlar qalamga olingan va qisman tekshirilgan boʻlib, bu makonlar oʻz davrida Gonur I markazga tobe boʻlgan boʻlishi mumkin. Gonur I ning shu davrga taaluqli boshqa yodgorliklardan kattaligi, uning shu muzofot, balki butun mamlakatning poytaxti boʻlganligiga shubha yoʻq. Modomiki shunday ekan, bu shahar Gonur vohasi balki butun Margush mamlakatining poytaxti boʻlgan boʻlishi mumkin.

Margʻiyonaning ilk shaharlaridan yana biri Toʻgʻaloq I boʻlib, uning maydoni 12 ga, u shu vohaning poytaxt markazi boʻlgan. Bu vohada 1974 yildan boshlab olib borilgan dala tekshiruv ishlari tufayli 30 dan koʻproq yodgorliklar qalamga olinib, ularning koʻpchiligida qazishma ishlar bajarilgan va natijada Toʻgʻaloq I da egallab yotgan maydoni va boshqa ilk shaharga xos xususiyatlari

³⁶ Сарианиди В.И. Древности страны..., стр - 32.

³⁷ Аскарлов А., Ширинов Т. Ранняя городская культура..., стр - 29.

aniqlanib, uning shu voha markazi bo'lganligi aniqlandi.³⁸ Yodgorlik balandligi 4 metrdan iborat tepalikdan iborat bo'lib, uning markaz qismi maydoni 12 ga ga yaqin. Yodgorlikning janubi-sharq tomonida joylashgan «qal'a» qoldig'i kuzatilib, u uchburchak shakl holatidagi 200 x 100 metr maydonga ega. Bu erdan sig'inadigan sopol idish qoldig'ining topilishi qiziqarlidir. Bu topilma aslida To'g'aloq I yonginasidan topilgan bo'lib, bu erda sig'inish «qal'asi», ya'ni o'ziga xos ibodatxona borligi aniqlangan edi. SHuni izohlab o'tish lozimki, To'g'aloq I sig'inish ibodatxonasini V.I.Sarianidi protozardushtiylik xarakteriga ega ekanligini qayd etadi.³⁹ Qazishma ishlar tufayli ma'lum bo'ldiki, To'g'aloq I uncha katta bo'lmagan makon bo'lib, balandligi 1,5 metr tabiiy tepalikda bunyod etilgan va u 3 ta davriy qurilishdan iborat.

Uchala qurilish gorizontlaridan olingan arxeologik ashyolar bronza davrining so'nggi bosqichiga, ya'ni mil. avv. II ming yillikning oxirlariga doir ekanligi aniqlandi.⁴⁰

Asosiy tepalikning shimoli-sharq tomonida kulollarning ikkita «kvartali» borligi aniqlanib, ularni shartli shimoily va janubiy kvartallar deb yuritiladigan bo'ldi. SHuni qayd etish lozimki, kulolchilar kvartallari va ustaxonlari asosiy makondan tashqarida joylashgan. Xumdonlar asosan ikki yarusli shaklda taqdim qilingan. Hammasi bo'lib bu erda 11 ta xumdon to'la qazib tekshirilgan. Bularni ikki bosqichga bo'lish mumkin. Bu xumdonlarning eng qadimgilari bronza davriga, ya'ni Gonur I davriga, so'nggi davrlarga taalluqlilari esa ahamoniylar zamoniga to'g'ri keladi.

To'g'aloq I sopol ashyolari kompleksi ham umuman qaralganda Gonur davriga yaqin turadi. Makondan antropomorf va zoomorf shaklidagi mayda terrakota plastikalari ham topilib, ular orasida shikastlangan 20 dan ziyod ayol hakalchalari bor. Zoomorflar shaklidagi hakalchalardan ham bir nechtasi topilgan bo'lib, ancha sxematik tarzda yasalgan holda ular sig'inish idishlarning sirtlariga

³⁸ Сарианиди В.И. Древности страны Маргуш-Ашгабад: «БЎЛЫМ», 1990, стр - 34-45.

³⁹ Сарианиди В.И. Храм и некропол Тилля тепе. –М, 1989, стр - 52.

⁴⁰ Сарианиди В.И. Древности страны Маргуш-Ашгабад: «БЎЛЫМ», 1990, стр - 40, 43.

ham yopishtirilgan. Bu shakllarning ayrimlarida ikki hurkakli tuyalar tasvirlangan. Aynan shunday sig'inish idishlari Baqtriyada ham keng tarqalgan bo'lib, ayrim holatlarda ularni qabrlarga ham qo'yishgan. To'g'aloq I arxeologik kompleksi tarkibida toshdan ishlangan kichik idishlar, ko'pincha albastrdan yasalgan idishchalar uchraydi. Bundan tashqari har xil toshlardan ishlangan turli taqinchoqlar hamda bargsimon shaklida ikki tomoni obdon kertilgan paykonlar ham mavjud. Metall buyumlardan silliq bilak uzuk, mix, to'g'nog'ich kabilar topilgan bo'lib, bu ashyolar Baqtriya kompleksiga o'xshashligi bilan xarakterlanadi.

SHunday qilib, To'g'aloq I kompleksining markaziy qismi «qal'a» inshootidan iborat bo'lib, u to'g'ri burchak shaklida bo'lib. qal'a devor burchaklarida burjlar bilan jihozlangan edi. Qal'a devorining sharqiy va g'arbiy tomoni bittadan yarim aylana burjlar o'rnatilgan. Qal'aning shimolida qator uylar bo'lib, ular V.I.Sarianidining fikricha, tantana va hashamat uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, bu binolar yagona kompleksga taalluqli edi. Qal'aning devor qalinligi 4,5 metrdan iboratligiga qaraganda, uning balandligi 10-12 metr bo'lgan bo'lishi mumkin. Hashamat va tantana uchun qurilgan binolarda pilonlar, ya'ni katta gul ustunlar topilgan. Tashqi dushmandan himoya uchun qal'a devorlarida shinaklar mavjud. Qal'aning sharqiy qismida olovga sig'inadigan asosiy sajdagoh bo'lgan bo'lishi mumkin. Umuman olganda To'g'aloq I ibodatxonasining umumrejalashtirilishi Marg'iyonada binokorlik san'atining yuksak rivojlanishidan dalolat bergan holda Qadimgi SHarq me'morchiligining Marg'iyona maktabining mavjudligini namoyon etadi.

Marg'iyona mamlakatida bronza asrining so'nggi davrida Oltintepa, Namozgohtepa, Jarqo'ton singari ilk shaharlar aynan tashkil topmagan bo'lsa-da, Gonur I, To'g'aloq I yodgorliklari ilk shahar xususiyatini anglatuvchi belgilari bilan boshqalardan ajralib turardi. Demak, bular Marg'iyona va Baqtriya arxeologik komplekslarini yagona ildizga ega ekanligini ko'rsatadi.

SHunday qilib, mil. avv. II ming yillikda an'anaviy o'troq dehqonchilik markazi Janubiy Turkmanistondan Murg'ob daryosining qadimgi o'zani bo'ylab o'zlashtirilib, Bexustin yozuvlarida qayd etilganidek gullab yashnagan «Margush mamlakati»ga aylanadi.

Xullas, O'rta Osiyoning janubiy sarhadlarida tashkil topgan ilk shaharlar asosan yuksak rivojlangan o'troq, sug'orma dehqonchilik mag'zidan kelib chiqqan madaniyat va iqtisodiy rivojlanishning mahsuli sifatida vujudga keldi. Fanda uzoq vaqtlar muammoligicha qolib kelgan bu masalaga aynan keyingi o'n yilliklarda aniqlik kiritildi.

O'rta Osiyo janubiy mintaqalarida dastlabki shaharlashish va bilan bog'liq ilk davlatchilikning vujudga kelish dialektik va evolyusion yo'llari va bosqichlarini isbotlab berishda arxeologiya fanining imkoniyatlari cheksiz ekanligi namoyon qilindi. Natijada ma'lum bo'ldiki, ilk sivilizatsiya o'choqlari nafaqat Hind, Nil, Xuanxe, Evfrat va Tigr havzalarida, shuningdek, O'rta Osiyoning janubiy, xususan, O'zbekiston, uning janubiy sarhadlarida ham Qadimgi SHarq sivilizatsiyasi singari mustaqil sivilizatsiya o'choqlari vujudga kelganligi isbotlandi va jahon mutaxassisleri tomonidan tan olindi.

Avvalo, Jarqo'ton ilk shahri va boshqalarning manbalarini atroflicha tahlil qilish tufayli bu sarhadlarda sodir bo'lgan ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari oydinlashtirildi va ma'lum bo'ldiki, bu jarayon o'z navbatida mintaqalarda tashkil topgan ilk shaharlarning Qadimgi SHarqdagi «nom»lari kabi vohalarda kichik-kichik davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, diniy, mafkuraviy markazlari sifatida shakllanganligi aniqlandi. Demak, ilk shaharlarning tug'ilishi ilk shahar va davlatchilik madaniyatining shakllanishi yagona dialektik jarayon ekanligi boy manbalar asosida isbotlandi.

Xulosa.

Qadimgi zamonlarda jahonning turli mintaqalarida, jumladan, Oʻrta Osiyoda sodir boʻlgan sivilizatsiyalar tarixini tiklab, bugungi kunda dunyoga mashhur boʻlib ketish faqat keng arxeologik tadqiqotlarning natijasidir. Aslida biz oʻrganayotgan yoʻnalish yuzasidan Qadimgi Baqtriya va Margʻiyona hududlarida tosh va ilk temir asrlari oraligʻidagi yirik oʻtmishda kechgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va maʼnaviy kechim, oʻzgarish hamda yutularni arxeologiya bergan maʼlumotlar tufayli tiklashga erishildi. Arxeologiya fani, ayniqsa, mustaqillik yillari rivojlandi, Oʻzbekiston fani jahonga yuz tutdi. Jumladan, Oʻrta Osiyo ibtidoiy va ilk temir davrlari madaniyati tarixini oʻrganish sohasida qoʻlga

kiritilgan yutuqlar katta bo'ldi. Masalan, 60-70- yillarga qadar mamlakatimizning o'tmish tarixi 450-500 ming yillikdan iborat bo'lgan holda, so'nggi yillarda Farg'ona, Ohangaron vohalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tufayli tariximiz 1 million 300 ming yillar qadimiy ekanligi isbotlandi. Umuman qaralganda, o'tmish tariximizning barcha taraqqiyot bosqichlari muntazam tadqiq ishlari tufayli tiklandi va O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlarining jahon madaniyati taraqqiyotidagi faol, yaratuvchilik ishtiroki ilmiy jihatdan isbotlandi. Bunday ham tarixiy, ham siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan katta yutuqlarga davlatimiz rahbariyatining fanning barcha tarmoqlari singari arxeologiya tadqiqot ishlariga ham cheksiz, doimiy g'amxo'rliги hamda turli millat olimlarining doimiy hamkorligi natijasida erishildi. To'g'ri, mustaqillikdan avvalgi yillari O'zbekiston arxeologiyasi quriq, bo'sh joyda tashkil topmagan, albatta. Mustaqillikdan avvalgi davrda ham arxeologiya bir qator yirik muvaffaqiyatlarga erishdi. Ayniqsa, eng qadimgi tariximizni tiklashda katta va betakror kashfiyotlar qilinib, arxeologiya muayyan darajada rivojlangan fan darajasiga ko'tarilganligini unutmaslik kerak.

Jumladan, Marg'iyonaning mezolit davri madaniyatini o'rganishda ham muhim tadqiqot ishlari bajarildi. Bu hududda yashagan mezolit davri jamoalarining asosiy xo'jaligi ovchilik, terim-termachilik bo'lgan. SHu bilan bir vaqtda mehnat qurollari takomillashuviga erishgan ayrim jamoalarda mahsulot ishlab chiqarish jarayoni sohasiga o'tmish elementlari vujudga kela boshlagan. To'g'ri, hozirgi kunda neolit davriga tegishli makonlar Kopetdog' etaklaridagidek serob topilib o'rganilganicha yo'q, lekin mavjud.

Vohalar bo'ylab o'troq dehqon jamoalarining keyinchalik ular asosida tashkil topgan yirik aholi markazlarining ildizlarini neolit davri jamoalarining yodgorliklaridan izlash kerak. Neolit davri yodgorliklarini o'rganish shu jarayonni ko'rsatdiki, O'rta Osiyo hududida yashagan bu davr qabilalarining madaniyat taraqqiyot jarayoni bir ma'lum yo'nalishda bo'lmasdan, balki ko'p qirralidir. Ammo mahalliy madaniyat negizida hamda qo'ni-qo'shni jamoalarning ma'lum madaniyat aloqadorligi natijasida rivojlanib, mil. avv. V minginchi yillarning boshlariga kelib, bu erda xo'jalik asosan ikki yo'nalishda rivojlandi. Marg'iyona

hududlarida, uning Kopetdog‘ etaklarida va tabiati bir muncha qulay bo‘lgan ayrim muzofotlarda yashagan jamoalar dehqonchilik kasbini egallagan va o‘troqlashib yashashga o‘tganlar. SHunday qilib, O‘rta Osiyo neolit madaniyat tarixini o‘rganish sohasida erishilgan yutuqlarga asoslanib, bu hududlarda yashagan aholini dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va baliqchilik xo‘jaligi asosida turmush kechirgan qabilalarga bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lindi. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan vohalarda yashagan qabilalar o‘zlarining tabiatga mutlaq qaramligidan mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiga o‘tib, kishilik tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bu jamoalarda taraqqiyot tezlashib, ular sivilizatsiya sari ancha ilgari ketdi. Bu jarayon esa kelajakda insoniyat tarixida bo‘ladigan yirik ijtimoiy, madaniy o‘zgarishlarga zamin yaratdi. Neolit va bundan keyingi davrlarda erishilgan barcha xo‘jalik va turmush madaniyati yutuqlarining negizida mehnat vositalarining doimiy taraqqiyot tarkibidan izlash kerak. Toshdan ishlangan qurollar kelajakda jamoalarning turmush talabini qoniqtira olmas edi va shu boisdan odamzod doim yaxshi turmush kechirish ilinjida doim izlanishda bo‘lib, metallardan foydalanishni kashf qildi. Avval mis, keyinchalik jez va mil. avv. I ming yillik boshlarida temirdan mehnat vositalari ishlab chiqishni kashf qilishib, galdagi taraqqiyot talablarini qondira bordilar. Metallning ishlab chiqarishga kirib kelishi, umuman, metallurgiya jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy turmushini keskin va sifat o‘zgarishiga zamin yaratdi, butun ijtimoiy tuzumni larzaga keltirdi. bu manzara jez asrida ancha tezlashdi. Dehqonchilik muzofotlari hududiy jihatdan tobora kengayib bordi. Metropoliya dehqon jamoalari janubdan shimoliy-sharqqa va O‘rta Osiyoning markaziy tumanlariga kirib bordi. Ana shu o‘zgarishlar tufayli Murg‘ob vohasida, Janubiy O‘zbekistonda mil. avv. II minginchi yillarda qator dehqonchilik vohalari tashkil topdi. Bu dehqonchilik markazlarining madaniy xo‘jalik asosida Qadimgi SHarq an‘analari ta’siri ham bor edi. Bundan tashqari, O‘rta Osiyoning shimoliy va markaziy muzofotlaridan dashtlik chorvador qabilalarning janubga yurishi faollashdi. Qadimgi chorvador qabilalarning ma’lum qismi mil. avv. II minginchi yillikning 2-yarmidan boshlab janubiy dehqon jamoalari mintaqalariga kirib bordilar. Bu jarayon o‘z navbatida

qabilalar o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga, shuningdek, etnik munosabatlarning faollashuviga olib keldi. Mil. avv. I minginchi yillarning oxirgi choragi – I minginchi yillarning 1-choragi davomida bir guruh chorvador qabilalarning dehqonchilik hayotiga o'tishi tezlashdi. Natijada, O'rta Osiyoning shimoliy mintaqalaridagi qator viloyatlarda chorvador qabilalar qurshovida kichik-kichik dehqonchilik vohalari paydo bo'ldi.

YUqorida eslatilganidek, Janubiy Turkmanistonda Namozgoh VI madaniyatidan keyin so'nggi jez davriga odir ikki xil madaniyat tashkil topdi. Ulardan biri Janubiy-g'arbiy Turkmanistonning arxaik Dahiston madaniyati bo'lsa, ikkinchisi YOz I madaniyati bo'lib, u asosan Murg'ob vohasi va Janubiy Turkmanistonning eski dehqonchilik mintaqasi hisoblangan Kopetdog' tog'oldi muzofotlarida keng tarqaldi.

Namozgoh VI, ya'ni jez davrining so'nggi rivojlangan – mil. avv. II minginchi yillarning 2-yarmida Baqtriya hududlarida Qadimgi SHarq ixcham ilk shaharlaridan farqli o'laroq, aglyumerativ tipdagi shaharlar vujudga kelib, ular o'z ko'hna ildizlariga – arklariga, ibodatxonalariga va saroylariga ega edilar. Ana shunday shaharlar jumlasiga Baqtriyadagi Jarqo'ton, Dashli III, Marg'iyonadagi Gonur I, To'g'oloq I kabilarni kiritish mumkin. Marg'iyonadagi Oltintepa, Namozgohtepa ilk shaharlari Baqtriyadagilarga nisbatan ancha avval, ya'ni mil. avv. II ming yillikning 1-yarmida Namozgoh V davrida shakllana boshlagan.

Xulosa qilib aytganda biz ham ana shu yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib o'lkamiz tarixini mustaqillik sharoitida haqqoniy yoritishga alohida etibor berishimiz kerak. SHu maqsadda tanlangan ushbu “Janubiy Turkmanistonda sug'orma dehqonchilikning tashkil topishi va rivojlanishi” nomli magistrlik dissertatsiyamni yozish jarayonida Janubiy Turkmanistonni arxeologik jihatdan o'rganilishi masalasida qiziqarli ma'lumotlarga duch keldim va qimmatli ma'lumotlarga ega bo'dim. Ushbu dissertatsiya ishimni yozish jarayonida berilgan mavzuni etarlich yoritib berdim deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида // Асарлар, 6 жилд, Тошкент: «Ўзбекистон», 1997.
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир // Асарлар, 3-жилд, Тошкент: «Ўзбекистон», 1999.
2. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан кураимиз // Асарлар, 7-жилд, Тошкент: «Ўзбекистон», 1999.
3. Асқаров А.А., Жўрақулов М. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё // Самарқанд, 1984.
4. Бердиев О.К. Древнейшие земледельцы Южного Туркменистана // Ашхабад: «БІлым», 1969.
5. Гаипов В.А., Тоголок 21 и проблемы религиозной истории

- Кошаленко Г.А. древней Маргианы // ВДИ №1, 1989.
6. Ганялин А.Ф. К стратиграфии Намазга-тепе // ТИИАЭ АН Туркм. ССР, Т. II. Ашхабад. 1956.
7. Ганялин А.Ф. Раскопки в 1959-1961 гг. на Алтын-депе // СА, 1967, №4.
8. Жўрақулов М.Ж. Ўрта Осиё урбонизацияси тарихи. Самарқанд.: СамДУ. 2008
9. Жўрақулов М.Ж. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. Т.: «Ўқитувчи». 1984.
10. Исомиддинов М. Сополга битилган тарих. Т.: «Фан». 1993.
11. Кабиров Ж., Сагдуллаев А.С. Ўрта Осиё археологияси // Тошкент: «Ўқитувчи», 1990.
12. Куфтин Б.А. Полевой отчёт о работе XIX отряда ЮТАКЭ по изучению культуры первобытных оседлоземледельческих поселений эпохи меди и бронзы в 1952 г. // Тр. ЮТАКЭ, Т. VII. -Ашхабад, 1956.
13. Лисицына Г.Н. Орошаемое земледение эпохи энеолита на Юге Туркмении // М.: «Наука», 1965.
14. Лисицына Г.Н. Становление и развитие орошаемого земледения в Южной Туркмении // М.: «Наука», 1978.
15. Литвинский Б.А. Намазга-тепе по данным раскопок 1949-1950 гг. (Предварительное сообщение)., СЭ., 1952, №4.
16. Масимов И.С. Раскопки ремесленного квартала эпохи бронзы поселения Алтын-депе // КД, вып. 3, -Ашхабад:

“Ылым”, 1970.

17. Масимов И.С. Изучение памятников эпохи бронзы низовьев Мургаба // СА. 1979, №1.
18. Масимов И.С. Культура низовья Мургаба в бронзовом веке и связи с Бактрией // ТД первого советско-французского симпозиума. “Археология древней Бактрии”. Душанбе, 1982.
19. Масимов И.С. Новые памятники раннежелезного века Мургабского оазиса // В кн.: Новые археологические открытия в Туркменистану. –Ашхабад, 1982.
20. Массон В.М. Раскопки на Алтын-депе в 1969 г. -Ашхабад: “Ылым”, 1970.
21. Массон В.М. Первобытный общинный строй на территории Туркмении // Труды ЮТАКЭ, -Т., VIII, 1956.
22. Массон В.М. Памятники культуры архаического Дахистана в юго-западной Туркмении // Тр. ЮТАКЭ. Т.VII, Ашхабад, 1956.
23. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА, 1959, №73.
24. Массон В.М.,
Ромадин В.А. Средняя Азия и Древний Восток // М. –Л.: «Наука», 1964.
25. Массон В.М. На пороге раннеклассового общества. Оазисы юга Средней Азии в первой трети I тыс. до н.э. // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. М. –Л., 1966.
26. Массон В.М. Поселение Джайтун. (Проблема становления производящей экономики) // МИА, №180, Л., 1971.
27. Массон В.М. Алтын-депе (исслед. 1965-1978) // Труды ЮТАКЭ. Т. XVIII, Л.: «Наука», 1981.

28. Массон В.М. Диалектика традиции и инноваций и культурный процесс в Древней Бактрии // Древнейшие культуры Бактрии. Среда, развитие, связи. Тезисы первого советско-французского симпозиума. “Археологии древнейшей Бактрии”. Душанбе, 1982.
29. Массон В.М. Изучение эпохи раннего железа на территории южного Туркменистана // Туркменистан в эпоху раннежелезного века. –Ашхабад: «Ылым», 1984.
30. Массон М.Е. Массон М.Е. Южно-Туркменистанская археологическая комплексная экспедиция (ЮТАКЭ) 1947 с. // Труды ЮТАКЭ, Т. I. Ашхабад, 1949.
31. Новые исследования по археология Туркменистана. Ашхабат. Ылым. 1980.
32. Пьяконов И.В. Древнейшие государственные образования Средней Азии (опыт исторической реконструкции) // Древние цивилизации Евразии. История и культуре. –М., 2001, 134-135.
33. Сарияниди В.И. Геогсюрский некрополь // В кн.: Новое в советской археологии. М., 1965.
34. Сарияниди В.И. Древности низовий Мургаба // АО 1972 г. М.: «Наука», 1973.
35. Сарияниди В.И. Степные племена эпохи бронзы в Маргиане // СА. 1974, №2.
36. Сарияниди В.И., Кошиченко Г.А. Мервский оазис // В кн.: Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. –Археология СССР. М. “Наука”, 1985.
37. Сарияниди В.И. Древности страны Маргуш-Ашгабад: «Ылым»,

- 1990.
38. Терехова Н.Н. Металлообрабатывающие производства у древнейших земледельцев Туркмении // Очерки технологии древнейших производств. М., 1975.
39. Удеимурадов Б.Н. К вопросу о происхождении комплексов эпохи бронзы Маргианы // ИАН ТССР, СОН, №4, 1988.
40. Удеимурадов Б.Н. Комплексы эпохи бронзы Алтын-депе и Маргианы (вопросы связей, хронологии, происхождения) // Автореф. на соиск.уч. степени к.и.н. Л., 1989.
41. Удеимурадов Б.Н. К вопросу о выявлении оседлых земледельцев в среднем течении Мургаба // ИАН ТССР, СОН, №2, 1989а.
42. Хлопин И.Н. Геоксиорская группа поселений эпохи энеолита. М. –Л., 1964.
43. Хлопин И.Н. Энеолит юго-запада Средней Азии // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. М. –Л., 1966.
44. Хлопин И.Н. Юго-западная Туркмения в эпоху поздней бронзы. Л., 1983.
45. Чарыева Э.В. Новый памятник культуры Архаического Дахистана // В кн.: Новые исследования по археологии Туркменистана. –Ашхабад: «Ылым», 1980.
46. Чарыева Э.В. Раскопки на Мадау // В кн.: Новые археологические открытия Туркменистану. – Ашхабад: «Ылым», 1982.
47. Шишкин И.Б. У стен великой Намазгаи. М.: «Наука», 1977.

